

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.Fil.15.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

RAXIMOVA BEKPOSHSHA BAXADIROVNA

**MATNAZAR ABDULHAKIMNING BADIY-ILMIY MEROSI:
POETIK VA TADQIQOTCHILIK MAHORATI**

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Abstract of Dissertation of Doctor of Sciences (DSc)

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Raximova Bekposhsha Baxadirovna

Matnazar Abdulhakimning badiiy-ilmiy merosi:

poetik va tadqiqotchilik mahorati 3

Rakhimova Bekposhsha Bakhadirovna

The artistic and scientific heritage of Matnazar Abdulkhakim:

poetic and research mastery 37

Рахимова Бекпошша Бахадировна

Художественное и научное наследие Матназара Абдулхакима:

поэтическое и исследовательское мастерство 71

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 77

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.Fil.15.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

RAXIMOVA BEKPOSHSHA BAXADIROVNA

**MATNAZAR ABDULHAKIMNING BADIY-ILMIY MEROSI:
POETIK VA TADQIQOTCHILIK MAHORATI**

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1DSc/Fil331 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Hamdamov Ulug'bek Abduvaxobovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Islamjon Axmedjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Oripova Gulnoza Murodilovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Sharipova Laylo Frunzeyevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Fil.15.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "11" sentabr soat 11 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (48 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "21" avgust kuni tarqatildi
(2026-yil "21" avgust dagi 5 -raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signatures in blue ink]

B.To'xliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D. Asqarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari nomzodi, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida hozirgi ilmiy-estetik tamoyillar, inson va hayotni badiiy kashf etish konsepsiyasi, umumbashariy qadriyatlarni targ'ib etish xususiyatlari tobora kengaymoqda. Bu xususiyat har bir millat adabiyotida, xususan, she'riyatida ham yangilanayotgan tafakkurning yetakchi belgisiga aylanib bormoqda. Badiiy ijod mundarijasida o'zlikni anglash tuyg'usi, inson ruhiyati, qalb olami va ma'naviy-axloqiy dunyosini falsafiy-psixologik tahlil etish ustuvorligi namoyon bo'lmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor shaxsi, dunyoqarashi, voqelikni muayyan ijtimoiy-estetik rakursda uning hayot yo'li-yu adabiy merosi bilan yaxlit o'rganish borasida qator ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ijodkorning individual uslubi, voqelikka munosabati, davrning ilg'or kishisi sifatidagi qiyofasi, o'ziga xos badiiy mahorati tadqiqi adabiy-poetik tafakkurning markaziga qo'yilmoqda. Ayniqsa, bir shaxsning o'zida ham badiiy iqtidor, ham ilmiy salohiyatning mujassam bo'lishi va bu ikki qobiliyatning bir-birini to'ldirib borishidan dunyoga kelgan asarlarning adabiy-estetik qimmatini o'rganish, targ'ib qilish voqelik va inson talqinida yangicha yondashuvlar paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida hozirgi adabiy jarayonga xos g'oyaviy-badiiy va uslubiy izlanishlar, bir tomondan, milliy zamindagi boqiy an'analarni davom ettirish va boyitish, ikkinchi tomondan, jahon adabiyoti tajribalarini ijodiy qo'llash fonida ko'zga tashlanmoqda. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega"¹. Albatta, milliy adabiyotimizning yetuk namoyandalari, alloma ijodkorlari asarlarini o'rganish, adabiy merosini targ'ib qilish bugungi adabiyotshunoslik ilmining muhim vazifalaridan biridir. Har bir davr adabiy jarayonida serqirra ijodkorlar yetishib chiqadiki, ularning badiiy-ilmiy merosini tahlil qilish orqali muayyan davrning ma'naviy qiyofasini, adabiy-estetik qarashlarini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Adabiyotshunoslikda professional olim va tanqidchilar bilan bir qatorda yozuvchi va shoirlarning ham adabiy-estetik qarashlarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Serqirra ijodkor, zamonaviy o'zbek she'riyatining yetuk vakili sifatida tanilgan Matnazar Abdulhakimning adabiy faoliyati, uning poetik va tadqiqotchilik mahoratini o'rganish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning poetik mahoratini, uning individual uslubi, ilmiy-badiiy tafakkuri, mumtoz va zamonaviy she'riy janrlar rang-barangligi, mavzu ko'lami, g'oya va poetik obraz mushtarakligi asosida o'rganish qo'yilgan muammoning dolzarb ekanligini belgilaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. Elektron resurs: <https://prezident.uz/uz/lists/view/1926>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2025-yil 5-maydagi PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 30-sentabrdagi PF-6077-son “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarini mukofotlash to‘g‘risida”, 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-son “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-son “Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi va Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Muayyan bir ijodkorning badiiy yoki ilmiy merosi, poetik hamda tadqiqotchilik mahoratini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari jahonning qator ilmiy-tadqiqot markazlari hamda oliy ta’lim muassasalarida, jumladan: University of Washington (AQSH), New York University (AQSH), Toronto School of Theology (Kanada), University of London (Angliya), University of

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar jahonning quyidagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan: www.indiana.edu, www.oaaw.ac.at, www.soas.ac.uk, www.cam.ac.uk, ox.ac.uk, www.fu-berlin.de/en/index.html, www.tsukuba.ac.jp/en, www.ivran.ru; <https://ru.wikipedia.org/wiki/>; <https://books.google.co.uz>; academia.uz; www.ebooks.azlibnet.az/book/HCBOWku7; <https://OxfordBibliographiesOnlineResearchGuide>; <https://ELTE-Eotvos-Lorand-Tudomanyegyetem>; www.britanica.com; www.cambridge.org; www.amazon.com; www.edu.uz; <https://www.istanbul>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; www.iaas.msu.ru; www.orient.spbu.ru/ru; <http://www.orientalstudies.ru>; www.istanbul.edu.tr/tr; <http://kaznu.kz/ru>; britishcouncil.org; internauka.ru; micro.uz; <https://sllc.umd.edu/persian/about>; actsudent.org; educationusa.info; americanenglish.state.gov; arzasmas.academy/uni/eastwest/pers; www.dissercat.com; <http://oriental-studies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institut-yazyka>; <https://www.ankara.edu.tr/tr>; <https://gazi.edu.tr>; www.twirpx.com; <http://www.vostokovideniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://navoiy-uni.uz/uz-k>; Karabulut, F., Pangereyev, A.Sh., Daulova, Zh.T. (2024). Artistic Originality and Poetic Mastery of Sherniyaz’s Heritage. Keruen, 2024(3). DOI: 10.53871/2078-8134.2024.3-01. Oshakbayeva, Zh., Zhetpisbayeva, M. (2022). Philosophical and Poetic Heritage of the Kazakh People. Adam Alemi, 2022(2). DOI: 10.48010/2022.2/1999-5849.04. Hadaga, H.M.S. (2022). Modern Poetry and Heritage: The Attitude and the Tributaries. International Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(1), DOI: 10.37648/ijrssh.v12i01.022

Amsterdam (Niderlandiya), Sophia University (Yaponiya), University of Tokyo (Yaponiya), Beijing University (XXR), İstanbul Üniversitesi (Turkiya), University of Peshawar (Pokiston), Baki Dövlət Universiteti (Ozarbayjon), Qozoq Milliy universiteti (Qozog'iston), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Qozon davlat universiteti va Boshqird davlat pedagogika universiteti (Rossiya), O'zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Urganch davlat universiteti kabi ilmiy muassasalarda ushbu yo'nalishdagi izlanishlar muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

Muayyan ijodkorning badiiy-ilmiy merosi, poetik tafakkuri hamda adabiy-estetik qarashlarini o'rganish borasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: ijodkor shaxsini adabiy jarayon bilan uzviy bog'liq holda o'rganish, individual poetik uslub hamda muallif konsepsiyasini zamonaviy adabiyot nazariyasi asosida tahlil qilish metodlari ishlab chiqilgan (University of Washington, New York University, AQSH); Sharq mumtoz adabiyoti an'analari va zamonaviy poetik tafakkur uyg'unligi qiyosiy-tipologik jihatdan ochib berilgan (Sophia University, University of Tokyo, Yaponiya); badiiy matnda muallif dunyoqarashi, madaniy me'ros va intertekstual aloqalarning o'zaro munosabati hamda ularning estetik mazmunni shakllantirishdagi o'rni nazariy jihatdan asoslangan (University of London, Angliya); adabiy matnni germeneytik va retseptiv estetika tamoyillari asosida talqin qilishning konseptual yondashuvlari ishlab chiqilgan (Heidelberg University, Germaniya); ijodkor poetikasining lingvomadaniy, aksiologik va kognitiv xususiyatlarini kompleks tahlil qilishning metodologik tamoyillari aniqlangan (İstanbul Üniversitesi, Turkiya); muallifning badiiy tafakkuri va individual uslubini diskursiv hamda narratologik yondashuvlar asosida tadqiq etishning samarali modellari aniqlangan (Charles University, Chexiya).

Jahon adabiyotshunosligida alohida ijodkorning badiiy-ilmiy merosi, poetik mahorati va adabiy-estetik tafakkurini tadqiq etishga oid ilmiy izlanishlar, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda olib borilmoqda: ijodkor shaxsini uning tarixiy-adabiy muhiti va davr estetik tafakkuri bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish; poetik tafakkurning individual-uslubiy xususiyatlari hamda badiiy mahorat mezonlarini zamonaviy adabiyot nazariyasi asosida tahlil qilish; milliy va jahon adabiyoti an'analari, adabiy ta'sir va tipologik mushtaraklikni komparativ yondashuv asosida tadqiq etish; badiiy hamda ilmiy merosni yaxlit tizim sifatida o'rganish orqali ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasini ochib berish; adabiy merosni raqamlashtirish, elektron bazalar va ilmiy platformalar vositasida tadqiq etish hamda xalqaro ilmiy muomalaga kiritish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon va rus adabiyotshunosligida badiiy ijodga yondashuv, ijodkorning poetik mahorati va adabiy-estetik qarashlari, ulardagi yetakchi xususiyatlar, hayotni badiiy idrok etish tamoyillari, adabiy tur va janrlarga mansub asarlar badiiyati haqida tadqiqotlar mavjud³.

³ Белинский В. Полное собрание сочинений в 13 томах. Т.– М.: –Б. 7. АН СССР, 1955-1969; Азадовский М. Статьи о литературе и фольклоре. – М.: – Л.: Гослитиздат, 1960; Емельянов Л. К вопросу о фольклоризме древней русской литературы.//Русский фольклор. Т. VII. – М. – Л.: Наука, 1962; Ларцев В. Баллада в современной поэзии//Звезда Востока, №9. 1963; Выходцев П. Русская советская поэзия и народное

Jahon adabiyotshunosligida poetik mahorat masalalari L.Timofeyev, B.Tomashevskiy, A.Potebnya, V.Vinogradov, Y.Lotman, M.Baxtin, V.Xalizev, A.Veselovskiy, N.Tamarchenko⁴ kabi olimlarning ilmiy asarlarida o'rganilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida serqirra faoliyat sohibi bo'lgan ijodkorlarning adabiy merosini tadqiq qilish, mavzu doirasi, badiiy mahorati masalalarini o'rganish hamma davrlarda ham mutaxassislar e'tiborida bo'lib kelgan. Ma'lumki, badiiylik asar g'oyasini ochib beruvchi kalit sanaladi. Shu bois shoir badiiy mahorati masalasida adabiyotshunoslikda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek olimlaridan I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, I.Haqqulov, B.Sarimsoqov, U.To'ychiyev, H.Umurov, A.Rasulov, I.G'afurov, N.Rahimjonov, N.Jabborov, B.Karimov, U.Hamdamov, S.To'laganova, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, U.Jo'raqulov, D.G'ayipov, M.Qo'chqorova⁵ va boshqa adabiyotshunos olimlar o'zlarining ilmiy

творчество. – Л.: Наука, 1963; Тимофеев Л. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1966; Пакальнишкис Р. Современная литовская поэма: Автореф.дисс...канд. филол. наук. – М., 1964; Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970; Михайлова А. Художественной условности. – М.: Мысль, 1970; Томашевский Б. Основы теории литературы. – М.: Наука, 1971; Лотман Ю. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970; Лозовой Б. Из истории русской баллады: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М.: 1970; Бахтин М. Эпос и роман // Вопросы литературы. №1. 1970; Тот же. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975; Тот же. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979; Лагутов В. О некоторых художественных мотивах жанра исторической баллады//Вопросы теории и истории литературы: сборник статей. – С., 1974; Страшнов С. Герой и стиль русской романтической баллады в период Великой Отечественной войны // Ученые записки Университета. –Иваново, 1974; Потебня А. Эстетика и поэтика. – М.: Сов.писатель, 1976; Виноградов В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976; Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977; Левинтон Г. Заметки о фольклоризме Блока / Миф – Фольклор – Литература. –Л.: Наука, 1978; Пospelов Г. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978; Тулаков И. Поэтические традиции и характер героя в узбекской советской поэме: Автореф.дисс... канд филол. наук. – Тошкент. 1981; Затонский Д. Искусство романа и XX век. – М.: Наука, 1982; Киканс В. Современная советская поэма. – Рига: Зинатне, 1982; Балашов Д. Русские народные баллады. – М.: Современник, 1983; Шкловский В. О теории прозы. – М.: Советский писатель, 1983; Кравченко А. Художественная условность как средство типизации характера (На материале современного украинского романа): Дисс...канд. филол. наук. – Киев, 1984; Числов М. Время зрелости – пора поэмы. – М.: Современный писатель, 1986; Веселовский А. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989; Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2000; Владимирова Н. Формы художественной условности в современном романе Великобритании: Дисс...д-ра филол. наук. – Новгород, 1999; Ковтун Е. Типы и функции художественной условности в европейской литературе первой половины XX века: Дисс... д-ра филол. наук. – М., 2000; Тамарченко Н. Теория литературы. Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003; Кобланов Ж. Фольклорные сюжеты в драматургии. // Филология и литературоведение. 2013. №10.URL: <http://philology.snauka.ru>; Сарбашева А. Балкарская драматургия: этнофольклорная традиция, эволюция, жанровая специфика: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – М.: Нальчик, 2014.

⁴ Тимофеев Л. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1966; Томашевский Б. Основы теории литературы. – М.: Наука, 1971; Потебня А. Эстетика и поэтика. – М.: Сов. писатель, 1976; Виноградов В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976; Лотман Ю. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970; Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979; Веселовский А. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2000; Тамарченко Н. Теория литературы. Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003.

⁵ Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 261 б.; Қўшжонов М. Сайланма: 2 жилдлик (Сўзбоши муаллифи Н.Худойберганов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. 1-жилд, – 384 б.; Қўшжонов М. Сайланма: 2 жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. 2-жилд, – 360 б.; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 604 б.; Норматов У. Тафаккур ёғдуси. – Тошкент, 2005. – 119 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 536 б.; Ҳаққулов И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 334 б.; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – 128 б.; Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.; Умuroв Ҳ. Сайланма//Адабий-танқидий тадқиқотлар. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 2007. – 206 б.; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.; Ғафуров И. Ҳаё – халоскор. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 383 б.; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек

tadqiqotlarida badiiylilik va obrazlilik, ijodkor badiiy mahorati, adib individualligini belgilovchi adabiy-estetik omillar kabi masalalar bilan jiddiy shug'ullandilar.

Matnazar Abdulhakim ijodini o'rganish o'z davridan boshlanib, asosan, shoir vafotidan keyin adabiy-tanqidiy maqolalar, ilmiy tadqiqotlar, esse va xotiralar ko'rinishida e'lon qilindi. Sh.Matkarimovning "Ustoz haqida so'z"⁶ (2013), Q.Solayevning "To'rtinchi muallim saboqlari"⁷ (2015), G.Ibodullayevaning "Bizning Matnazar akamiz"⁸ (2018), "Matnazar Abdulhakimni eslab"⁹ (2016) nomli to'plam va risolalar shular jumlasidandir.

So'nggi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida Matnazar Abdulhakim ijodiga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortgani kuzatildi. Bir qator ilmiy tadqiqotlarda uning nomi zamonaviy o'zbek adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri, mohir mutarjim, adabiyotshunos-tadqiqotchi sifatida tilga olinmoqda. Istiqloл davri lirikasida uslubiy yo'nalishlar muammosini tadqiq qilgan N.Jumaniyazovning nomzodlik dissertatsiyasida Shavkat Rahmon, Bahrom Ro'zimuhammad, X.Rustamova kabi bir qator shoirlar bilan Matnazar Abdulhakimning she'rlari ham tahlil qilinib, uning xalq donishmandligi namunalaridan ilhom olib, poetik mazmunni teranlashtirishga intilgani, zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega ekanligi alohida ko'rsatiladi¹⁰.

H.Abdullayevning "Mangulikka muxtasar nazar"¹¹ risolasida esa Matnazar Abdulhakim shaxsiyati va she'riyatining o'ziga xos jihatlari yoritilib, ayrim she'rlari G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi yirik namoyandalar ijodi bilan qiyoslanib, yuqori baholanadi.

M.Abdulhakim ijodiga bag'ishlangan ilk monografik tadqiqot H.G'ayipovning "Matnazar Abdulhakimning badiiy va publitsistik mahorati" deb nomlanib, unda shoir lirikasida g'oya va mavzu masalasi, shuningdek, badiiy publitsistik asarlari ham tahlilga tortiladi. Bundan tashqari, N.Atajanovning magistrlik, J.Matnazarovning nomzodlik dissertatsiyalarida M.Abdulhakim lirikasi lingvopoetik nuqtayi nazardan yoritiladi¹².

шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – 133 б.; Раҳимжонов Н. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 223 б.; Жабборов Н. Замон. Меъзон. Шеърят. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 304 б.; Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016. – 364 б.; Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 200 б.; Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2011. – 304 б.; Тўлаганова С. Бадиий асар морфологияси. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2016. – 176 б.; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 546 б.; Қуронон Д. Адабий ўйлар. Тошкент: Турон zamin ziyo, 2016. – 112 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 356 б.; Ғайипов Д. Оғаҳий шеърияти бадиияти. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. – 180 б.; Қўчқорова М. Хатлар – дўстона алоқа воситаси. // Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари. Н.Раҳимжонов таваллудининг 80-йиллиги муносабати билан ўтказилган халқаро илмий-амалий анжуман материаллари, 2024. – Б.146-149.

⁶ Маткаримов Ш. Устоз ҳақида сўз. – Урганч: Хоразм, 2013. – 36 б.

⁷ Солаев Қ. Тўртинчи муаллим сабоқлари. – Урганч: Хоразм, 2013. – 200 б.

⁸ Ибодуллаева Г. Бизнинг Матназар акамиз. – Урганч: Хоразм, 2013. – 60 б.

⁹ Matnazar Abdulhakimni eslab... – Toshkent: Lesson Press, 2016. – 240 b.

¹⁰ Жуманиёзова Н. Истиқлол даври ўзбек лирикасида услубий изланишлар: Филол.фан. номз.дисс. – Тошкент, 2011. – 146 б.

¹¹ Абдуллаев Х. Мангуликка мухтасар назар. – Урганч: Хоразм, 2018. – 62 б.

¹² Ғайипова Х. Матназар Абдулҳакимнинг бадиий ва публицистик маҳорати. Фил.фанл. бўйича фал.доктори, диссертацияси. – Урганч, 2019.; Атажоновна Н. Матназар Абдулҳаким шеърияти лингвопоэтикаси. Магистрлик диссертацияси. – Урганч, 2010.; Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърияти лингвопоэтикаси. Фил.фанл. бўйича фал.доктори, дисс.автореферати. – Урганч, 2021.

B.Sharif, D.Rahim, S.Olim, Sh.Rizayev, I.Yoqubov, B.Karim, E.Ochilov, S.Rahmanova, V.Qodirov, A.O'rozboyev, I.Ismoilov, M.Yo'ldasheva, K.Abdusalomova kabi qator olim, adabiyotshunos va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida M.Abdulhakimning lirik asarlari, tarjimashunoslik faoliyati va publitsistik maqolalari xususida fikr-mulohazalar bildirilgan¹³.

Yuqorida tilga olingan tadqiqot va qarashlar Matnazar Abdulhakim ijodining ayrim jihatlarini alohida yo'nalishlarda yoritgan bo'lsa-da, ularning barchasida ijodkorning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, uning poetik tafakkuridagi o'ziga xosliklar, obrazlar tizimi, adabiy-estetik qarashlari, tadqiqotchilik faoliyati keng ko'lamda, izchil o'rganilmagan. Ushbu muammolarni to'liq yoritish, shoirning badiiy va ilmiy merosini o'rganish, uning o'zbek adabiy tafakkuridagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini chuqur ochib berish monografik tadqiqotni talab qiladi.

Shoirning poetik tafakkuri, janrlar ustidagi izlanishlari, o'ziga xos falsafiy qarashlari, shuningdek, adabiy tadqiqotchilik faoliyatini o'zaro bog'liq holda chuqur tahlil etish adabiyotimizdagi mavjud ilmiy qarashlar nuqtayi nazaridan hali to'liq tadqiq etilmagan muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Mazkur dissertatsiya serqirra ijodkor Matnazar Abdulhakimning badiiy va ilmiy merosini uyg'unlikda o'rganish, uning milliy adabiyotdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan ilk izlanishlardan biridir.

Tadqiqot dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Hozirgi o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Matnazar Abdulhakim ijodining zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rnini, jumladan, she'riy janrlar, obrazlar va poetik ifodalar rivoji hamda adabiy tadqiqotchilik faoliyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyotshunoslikda ijodkor poetik mahorati muammosining nazariy asoslari hamda Matnazar Abdulhakim hayoti va ijodining adabiyotshunoslikda yoritilishini asoslash;

Matnazar Abdulhakim adabiy merosida mumtoz va zamonaviy she'riy janrlarning poetik takomili va badiiy xususiyatlarini ochib berish;

¹³ Раҳимов Д., Шарилов Б. Бедор қалб изтироблари // Сино. – Тошкент: 2008. 24-сон, – Б. 25-33.; Султонмурод Олим. Тасаввурот // Фидокор. 2007, 14-июн. – Б.14.; Ризаев Ш. Яшаб ўтди ёнимизда уч шоир// Тасаввур ёлқинлари. 2013, 13 феврал. - Б.4.; Ёқубов И. Ёлғиз япроқ – умид япроғи //Бадий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент, 2011. – Б. 374.; Очилов Э. Рубоий таржимасида шакл ва мазмун бирлиги. Филол.фан. номз дисс. – Тошкент, 2011. – 134 б.; Очилов Э. Мирзо Бедил асарлари ўзбек тилида/ Бедил ва ўзбек маънавияти. – Техрон-Мовароуннахр, 2005. – Б. 128-141.; Очилов Э. Паҳлавон Маҳмуд. – Тошкент: Ўзбекистон, 213. – Б. 101-111.; Раҳманова С. Ўзбек сонетлари: поэтик структура ва бадий образ. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Тошкент: – 2010, 167 б.; Қодиров В. Ҳозирги замон ўзбек ғазаллари поэтикасининг айрим хусусиятлари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 1993. – 147 б.; Ўрозбоев А. Мангулик жамолининг жилваси. – Жаҳон адабиёти // – Тошкент, 2018. – № 2. – Б.175.; Исмоилов И. Моҳир таржимон // Матназар Абдулҳакимни эслаб. – Тошкент: LESSON PRESS, 2016. – Б. 86.; Yo'ldasheva M. Badiiy tafakkur va adabiy jarayon: ilmiy-uslubiy to'plam. – Toshkent: Urganch davlat universiteti filologiya fakulteti, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2019. №15. – Б. 21.

shoirning mumtoz adabiyot vakillari, xususan, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Bedil va Ogahiy an'alariga munosabati, adabiy ta'sir va ijodiy o'ziga xosligini dalillash;

lirik asarlarida she'riy janrlar rang-barangligi, mavzu va g'oyalar ko'lami, poetik obrazlar tizimi hamda falsafiy mushohada uyg'unligining badiiy ifodasini tadqiq etish; shoir dostonlarida falsafiy-ijtimoiy mazmun, tarixiy obraz yaratish tamoyillari, novatorlik xususiyatlari va doston janri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini asoslash;

Matnazar Abdulhakimning adabiy tadqiqotchilik faoliyati, publitsistik qarashlari, badiiy-ilmiy tafakkuri hamda shoir va olim sifatida shakllanish omillarini yoritish.

Tadqiqot obyekti sifatida Matnazar Abdulhakimning "Javzo tashrifi" (2008) saylanmasi, "Mangulik jamoli" (2009), "Ko'prik" (2009), "Tafakkur chorrahalarida" (2013), ikki jildlik "Tanlangan asarlar"i (2017) to'plamlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Matnazar Abdulhakim lirikasining mavzu ko'lami, janriy tarkibi, an'ana va novatorlik masalalari, shuningdek, ijodkorning adabiy-estetik qarashlari, tadqiqotchilik mahoratining o'ziga xos qirralarini ochib berish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik tadqiq usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Matnazar Abdulhakim ijodi misolida adabiyotshunoslikda poeziyaga xos mavzu ko'lami, janrlar rang-barangligi, obrazlar tizimi kabi badiiy mahorat masalasiga doir tamoyillar yoritilib, tasvir va ifodadagi mumtoz an'alardan foydalanish, sheva so'zlaridan istifoda etish bilan bog'liq uslubiy individualliklar "Darsdan so'ng", "Vasvasa", "Da'vat", "Og'riq", "Daraxtzor" kabi she'rlari asosida ochib berilgan;

Matnazar Abdulhakim poetik tafakkurining shakllanishi uchun "Falsafiy tush", "Bir qujoq gul", "O'git" kabi she'r va to'rtliklarida xalq og'zaki ijodining maqol, matal, qo'shiq, doston singari janrlari, "Xabaring yo'q", "Bir vaqtlari", "Kelmas", "Jonim" kabi g'azallarida mumtoz adabiyotning g'azalnavislik, ruboiynavislik, dostonnavislik singari an'analari, "Mahzun un chekadi nay yoralari", "Daryo – men, daryo – sen, daryo – u" kabi sonetlarida, "Turnalar haqida ballada", "Avtobus haqida ballada", "Bog' haqida ballada" kabi asarlarida jahon adabiy-estetik tajribalarining ta'sir ko'rsatgani ochib berilib, bu omillar shoirning uslubiy izlanishlarda namoyon bo'lishi isbotlangan;

shoirning mustaqillik davri o'zbek she'riyatida dunyo, ochun, gado, qalandar, oshiq, ma'shuqa, raqib, ag'yor, karvonsaroy, muallima, zanjir singari qator timsollar orqali falsafiy, irfoniy mazmunlarni kuchaytirib, didaktik qarashlarni singdirgani "Javzo arafasi", "Ko'chki", "Ko'prik" singari dostonlaridagi tarixiy-badiiy uyg'unlik misolida dalillangan;

Matnazar Abdulhakimning adabiy-estetik hamda publitsistik tafakkuri istiqbol davrining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jarayonlari, ya'ni mustaqillikning e'lon qilinishi, hurriyat davrida inson erki, fikr erkinligi singari xalq ruhiyati bilan

bog‘liq badiiy-estetik qarashlari “Iymon tuhfası” publitsistik maqolalari asosida isbotlangan;

Matnazar Abdulhakimning “Ikkinchi muallim saboqlari”, “Mangulik jamoli”, “Tafakkur chorrahalarida” kabi kitoblariga kiritilgan badiiy-publitsistik maqolalarida istiqlol yillarining dolzarb ijtimoiy-ma’naviy mavzulari yoritilgani asoslanib, sobiq mafkura sharoitida adabiyotga munosabat masalasidagi an’anaviy yondashuvlar va yangi davr tamoyillari ta’sirida adabiyotshunoslikdagi yangiliklarga munosabat masalasi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Adabiyotshunoslikda ijodkor poetik mahorati muammosining o‘rganilishi natijasida mazkur masalaning nazariy asoslari va mohiyati yoritilgan, shuningdek, Matnazar Abdulhakim ijodining o‘rganilishi tadrijiy yoritilgan;

Matnazar Abdulhakim lirik merosi tahlili orqali zamonaviy o‘zbek she’riyatiga doir ilmiy-nazariy mulohazalar hozirgi adabiy jarayon yo‘nalishining taraqqiyoti uchun xizmat qilishi ko‘rsatilgan;

Matnazar Abdulhakimning badiiy mahorati yuksalishida mumtoz adabiy an’analar va jahon adabiyotining ta’siri asoslanib, o‘ziga xos jihatlari oydinlashtirilgan;

shoir lirik merosidagi deyarli barcha she’riy janrlar qamrab olinib, ularning badiiy xususiyatlari tahlil qilingan, shuningdek, mavzu va g‘oya nuqtayi nazaridan guruhlangan;

shoir tadqiqotchilik faoliyatining adabiy-estetik qirralari yoritilib, uning ilmiy qarashlari va badiiy tafakkuri o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritilgan;

Matnazar Abdulhakim tadqiqotlarida qiyosiy-tipologik metod ustuvorligi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, biografik tadqiq usullari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Matnazar Abdulhakim ijodini qiyosiy-tipologik hamda nazariy asosda o‘rganish orqali she’riy matnlarni turli xil yondashuvlar bilan tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishda, adabiy-estetik qarashlarini o‘rganish esa mumtoz adabiyot namoyondalari ijodini ochib berishda ilmiy ahamiyatga ega;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida yoshlarga adabiy-nazariy ma’lumotlar berishda, nasriy asarlarni, xususan, hikoyalarni qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rgatishda, shuningdek, oliy ta’lim bosqichining filologiya yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti” kabi fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, adabiyotshunoslikka oid izohli lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish imkonini berish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Matnazar Abdulhakimning badiiy-ilmiy merosi, uning poetik va tadqiqotchilik mahorati masalasiga doir qarashlar asosida tadqiq etish, ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilash asosida:

Matnazar Abdulhakim ijodi misolida adabiyotshunoslikda poeziyaga xos mavzu ko'lam, janrlar rang-barangligi, obrazlar tizimi kabi badiiy mahorat masalasiga doir tamoyillar yoritilib, tasvir va ifodadagi mumtoz an'analardan foydalanish, sheva so'zlaridan istifoda etish bilan bog'liq uslubiy individualliklar "Darsdan so'ng", "Vasvasa", "Da'vat", "Og'riq", "Daraxtzor" kabi she'rlari asosida ochib berilganiga doir yangiliklardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining She'riyat kengashi hisobot yig'ilishlarida, Matnazar Abdulhakim tavalludiga bag'ishlangan xotira tadbirlarida, Ogahiy ijod maktabida o'tkazilgan "mahorat darslari"da, ijodiy uchrashuvlar, adabiy-ma'rifiy anjumanlarda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 28-noyabrda 01-03/418-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalaridan foydalanish yosh avlodning ma'naviy-ruhiy olamini boyitishga, ijodkorlik iste'dodini shakllantirishga hamda ularning badiiy-estetik tafakkurini yanada oshirishga xizmat qilgan;

Matnazar Abdulhakim poetik tafakkurining shakllanishi uchun "Falsafiy tush", "Bir qujoq gul", "O'git" kabi she'r va to'rtliklarida xalq og'zaki ijodining maqol, matal, qo'shiq, doston singari janrlari, "Xabaring yo'q", "Bir vaqtlari", "Kelmas", "Jonim" kabi g'azallarida mumtoz adabiyotning g'azalnavislik, ruboiynavislik, dostonnavislik singari an'analari, "Mahzun un chekadi nay yoralari", "Daryo – men, daryo – sen, daryo – u" kabi sonetlarida, "Turnalar haqida ballada", "Avtobus haqida ballada", "Bog' haqida ballada" kabi asarlarida jahon adabiy-estetik tajribalarining ta'sir ko'rsatgani ochib berilib, bu omillar shoirning uslubiy izlanishlarda namoyon bo'lishi isbotlanganiga oid xulosalaridan "Janubiy Orolbo'yi adabiy aloqalari antologiyasi" va uning elektron platformasini yaratish (o'zbek, turkman va qoraqalpoq adabiy aloqalari asosida)" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2025-yil 9-dekabrda 01-21-04/3743-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ijodkor mahorati tushunchalari, ijodkor izlanishlarining tadrijiy takomili, mumtoz va zamonaviy adabiyotda shakliy-uslubiy izlanishlar, an'ana va yangiliklar, adabiy ta'sir kabi masalalarga oid fikrlar bilan to'ldirilishida tadqiqot ishi zaruriy manba vazifasini o'tadi.

shoirning mustaqillik davri o'zbek she'riyatida dunyo, ochun, gado, qalandar, oshiq, ma'shuqa, raqib, ag'yor, karvonsaroy, muallima, zanjir singari qator timsollar orqali falsafiy, irfoniy mazmunlarni kuchaytirib, didaktik qarashlarni singdirgani "Javzo arafasi", "Ko'chki", "Ko'prik" singari dostonlaridagi tarixiy-badiiy uyg'unlik misolida dalillanganiga doir xulosalardan "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining "Komparativistika" elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining 2026-yil 15-yanvardagi 11-25/27-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotdagi jahon va o'zbek adabiyotshunosligida ijodkorning poetik mahorati muammosining nazariy jihatlarini tadqiq qilish tarixini yoritish hamda serqirra ijodkor Matnazar Abdulhakim hayoti va ijodining

o'rganilishi, shoir adabiy merosida lirikaning ustuvorligi, mumtoz va zamonaviy janrlarning poetik takomiliga doir qarashlar bilan boyitilishi loyihaning ilmiy-nazariy ahamiyatining oshishiga xizmat qilgan.

Matnazar Abdulhakimning adabiy-estetik hamda publitsistik tafakkuri istiqlool davrining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jarayonlari, ya'ni mustaqillikning e'lon qilinishi, hurriyat davrida inson erki, fikr erkinligi singari xalq ruhiyati bilan bog'liq badiiy-estetik qarashlari "Iymon tuhfası" publitsistik maqolalari asosida isbotlangani haqidagi yangiliklardan "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 27-yanvardagi 01/8107-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyihaning asosiy xulosalarini belgilashda tadqiqot ishi natijalari muhim manba sifatida xizmat qilgan;

Matnazar Abdulhakimning "Ikkinchi muallim saboqlari", "Mangulik jamoli", "Tafakkur chorrahalarida" kabi kitoblariga kiritilgan badiiy-publitsistik maqolalarida istiqlool yillarining dolzarb ijtimoiy-ma'naviy mavzulari yoritilgani asoslanib, sobiq mafkura sharoitida adabiyotga munosabat masalasidagi an'anaviy yondashuvlar va yangi davr tamoyillari ta'sirida adabiyotshunoslikdagi yangiliklarga munosabat masalasi ochib berilganiga oid xulosalardan "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 27-yanvardagi 01/8107-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyihaning asosiy xulosalarini belgilashda tadqiqot ishi natijalari muhim manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatısiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 4 ta xalqaro konferensiya va 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida ma'ruza va tezislar ko'rinishida ilmiy jamoatchilikka havola etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 17 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 278 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy zarurati asoslab berilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniq belgilangan. Shuningdek, ishning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **I bobi “Shoir adabiy merosi va poetik mahorat masalasining nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda poetik mahorat tushunchasining jahon va o‘zbek adabiyotshunosligidagi nazariy talqinlari, shuningdek, Matnazar Abdulhakim ijodining o‘rganilishi tahlil etilgan. Birinchi bobning birinchi fasli **“O‘zbek adabiyotshunosligida Matnazar Abdulhakim ijodining o‘rganilishi”** deb nomlanib, bu faslda shoir ijodining o‘rganilish bosqichlari tahlil qilindi. M.Abdulhakim ijodini o‘rganish o‘z davrida boshlanib, asosan, shoir vafotidan keyin adabiy-tanqidiy maqolalar, ilmiy tadqiqotlar, esse va xotiralar ko‘rinishida e‘lon qilindi. Dastlab shoir haqida xotiralar, ilmiy-publitsistik asarlar yaratilganligini qayd qilish lozim, Sh.Matkarimovning “Ustoz haqida so‘z” (2013), Q.Saloyevning “To‘rtinchi muallim saboqlari” (2015), G.Ibodullayevaning “Bizning Matnazar akamiz”¹⁴(2018) risolalari va shoir zamondoshlarining “Matnazar Abdulhakimni eslab”(2016) xotira kitobi shular jumlasidandir.

Shoir shaxsiyati, uning ijodi haqidagi fikr-mulohazalar, xotiralar “Matnazar Abdulhakimni eslab”¹⁵ nomli to‘plamda jamlangan bo‘lib, 2016-yilda nashr etildi. Kitobda o‘ttizdan ortiq ijodkor, ilm-fan va san‘at vakillarining Matnazar Abdulhakim shaxsiyati haqidagi xotiralari, betakror ijodi yuzasidan fikr-mulohazalari jamlangan. Xususan, kitobga A.Oripov, A.Obidjon, E.Samandar, E.Madrahimov, K.Avaz, T.Adashboyev, M.Safarboyev, Sh.Matkarim, G.Begim, I.Ismoilov kabi bir qator shoir va adabiyotshunoslarning maqolalari kiritilgan.

M.Abdulhakim haqidagi adabiy-tanqidiy ishlar orasida O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripovning “Teran ijod” nomli maqolasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shoir shaxsiyati, she‘riyati, uning boy tafakkur olami xususida so‘z yuritiladi. Shunisi muhimki, A.Oripov M.Abdulhakim she‘riyatini juda yuqori baholab, “uning she‘rlari muqaddas kitobimiz Qur’oni karimdagi “hikmatlar” kabidir, deb ulug‘laydi va uni “donishmand shoir” sifatida e‘tirof etadi. Shoirning iste’dodini Abu Rayhon Beruniy bilan qiyoslagan holda, uning falsafasi va tafakkurini tarixiy mutafakkirlar darajasiga ko‘taradi, ilmiy faoliyatini, xususan, Xorazm Ma‘mun akademiyasidagi ishlarini esa adabiyotshunoslik uchun muhim ekanligini alohida e‘tirof etadi. A.Oripov bu faoliyatni e‘tirof etar ekan, shoir yozgan maqola va tadqiqotlarning darajasiga “manaman degan ...shunoslarning nafasi yetmas edi”¹⁶,– deb ta’riflaydi. Darhaqiqat, M.Abdulhakimning Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Navoiy, Bedil, Ogahiy kabi mumtoz siymolar ijodi yuzasidan yozgan maqola-tadqiqotlari yuqoridagi ta’rifning to‘g‘ri ekanligini isbotlaydi.

Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri, shoir Oshiq Erkin (Erkin Madrahimov) qalamiga mansub “Mangulikka daxldor buyuklik” maqolasi adabiy portret xarakterida bo‘lib, “Tiniq tuyg‘ular”, “Dilbar tarjimalar”, “Orombaxsh she‘riyat, teran tadqiqotlar ijodkori”, “Falsafiy she‘riyat zargari” kabi qismlardan iborat. To‘rt qismdan iborat bu maqolaning har bir qismida Oshiq Erkin shoir ijodidagi alohida jihatlarni yoritadi:

¹⁴ Ибодуллаева Г. Бизнинг Матназар акамиз. – Урганч: Хоразм, 2013. – 36 б.

¹⁵ Matnazar Abdulhakimni eslab... – Toshkent: Lesson Press, 2016. – 240 b.

¹⁶ Oripov Abdulla.Teran ijod. // Matnazar Abdulhakimni eslab...(Shoir va tarjimon Matnazar Abdulhakim haqida xotiralar, ilmiy-tadqiqotlar). – Toshkent: Lesson Press, 2015. – B. 3.

1. Shoir shaxsiyati – “Teran tuyg‘ular”. Bu qismda M.Abdulhakim shaxsiyatidagi kamtarinlik, oddiylikdagi buyuklik, halollik, to‘g‘riso‘zlik, donishmandlik fazilatlarini e‘tirof etiladi. 2. Hassos mutarjim sifatidagi faoliyati – “Dilbar tarjimalar”. Bu bo‘limda shoirning fors, rus, turkman tillaridan hamda o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima etilgan xorazmlik shoirlar asarlari nazarda tutilib, mohir tarjimon ekanligi ta‘kidlanadi. 3. Badiiy-publitsistik hamda tadqiqotchilik mahorati – “Orombaxsh she‘riyat, teran tadqiqotlar ijodkori”. “Iymon tuhfasini”, “Ikkinchi muallim saboqlari”, “Mangulik jamoli”, “Tafakkur chorrahalarida” asarlaridagi shoir tadqiqotlari va talqinlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi. 4. She‘riyati, donishmand shoir sifatida e‘tirof etilishi – “Falsafiy she‘riyat zargari”. Bu qismda shoir she‘riyatidagi falsafiy mushohadakorlik, aforistik talqin uyg‘unligi va badiiy mahorat masalalariga e‘tibor qaratiladi.

M.Abdulhakim haqida yaratilgan ilmiy-ommabop asarlardan biri “To‘rtinchi muallim saboqlari” kitobidir. Ma‘lumki, birinchi muallim – Arastu bo‘lsa, ikkinchi muallim – “muallimi soniy” bu Abu Nasr Forobiydir. Matnazar Abdulhakim Sharq olamining benazir donishmandi Pahlavon Mahmudni ilk marotaba “uchinchi muallim” deya tilga oladi. Zero, Pahlavon Mahmud inson ruhiyatini tarbiyalovchi, ichki olamini poklovchi, ma‘naviy kamolotga yo‘naltiruvchi ruboiylari bilan donishmandlik maktabining benazir namoyandasidir. Arastu, Forobiy va Pahlavon Mahmud falsafasini chuqur o‘rgangan M.Abdulhakimni Q.Solayev “to‘rtinchi muallim” deya e‘tirof etadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida so‘nggi yillarda M.Abdulhakim ijodining estetik-falsafiy mohiyatini tahlil etishda H.Abdullayevning tadqiqotlarini alohida e‘tirof etish lozim. H.Abdullayevning M.Abdulhakim ijodi haqidagi tadqiqotlari shoirning ilk to‘plamlari chiqqan paytlardayoq boshlangan va respublika hamda mahalliy matbuot nashrlarida chop qilingan. “Mangulikka muxtasar nazar” kitobida olimning turli davrlarda matbuotda nashr etilgan maqolalari va shoir ijodi haqidagi keyingi kuzatishlari e‘lon qilingan. H.Abdullayev mazkur adabiy-ommabop risolasida shoir ijodiy faoliyati qirralariga umumiy nazar tashlaydi, she‘riyatidagi falsafiy-intellektual motivlarning yetakchiligini, fors tilidan tarjimalaridagi mahorati va adabiy-estetik qarashlaridagi zukkolikni qayd etadi.

M.Abdulhakim ijodi bo‘yicha ilk monografik tadqiqot H.G‘ayipovanning “Matnazar Abdulhakimning badiiy va publitsistik mahorati” nomli dissertatsiyasidir. Dissertatsiyada shoirning she‘riyat, tarjima va publitsistika sohalaridagi faoliyatini tahlil qilish orqali uning ijodiy yo‘li, o‘ziga xos badiiy uslubi hamda poetik mahorati keng tahlilga tortiladi. H.G‘ayipova M.Abdulhakim ijod yo‘lining tadrijida insonga munosabat, davr va tafakkur o‘zgarishlari, yangicha tamoyillar namoyon ekanligini aytib, bu ijodni mustaqillik yillarida ikki bosqichda o‘rganish mumkinligini ta‘kidlaydi: 1) 1991-2000 yillar; 2) istiqlolni keyingi davri (2001-2010). Dissertatsiyada M.Abdulhakimning badiiy-publitsistik mahorati ham tahlilga tortilib, maqola, esse, adabiy suhbat, adabiy o‘ylar kabi janrlardagi mahorati ko‘rsatib beriladi. Umuman, H.G‘ayipovanning mazkur tadqiqoti serqirra iste‘dod sohibi M.Abdulhakimning badiiy-publitsistik faoliyati alohida planda olib o‘rganilishi bilan ahamiyatga molikdir.

Matnazar Abdulhakimning ko‘plab she‘rlari kitobxonlar va adabiyotshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, “Darsdan so‘ng” nomli she‘riga yurtimizda “Muallimga mangu ehtirom” nomi ostida haykal ham o‘rnatilgan. Umuman olganda, aynan shoirning shu bitta she‘ri ko‘plab adabiyotshunoslarning e‘tiborini tortib kelmoqda. Jumladan, adabiyotshunos olim va yozuvchi U.Hamdani ham o‘zining “Bir she‘r tahlili”¹⁷ maqolasida “Darsdan so‘ng” she‘rini falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Jumladan, she‘rda qishloq muallimasining shom tushganda maktabdan chiqib, olis uyi tomon qirlar osha yolg‘iz yayov ketayotganda, yo‘lda och qashqirga duch kelib qolib, qo‘lidagi daftarlarni birin-sirin yoqib himoyalaniishi, lekin shunda ham yetti o‘quvchining topshirilmagan daftari tufayli qashqirga yem bo‘lishi g‘oyat ta’sirli aks ettirilganini va o‘z vaqtida vazifani bajarib, daftarni topshirmaslik, ya’ni o‘qimaslik, bilimsizlik halokatga yetaklovchi illat ekanligini tahlil qiladi. Umuman, M.Abdulhakimning teran badiiy ijodi, serqirra faoliyati she‘riyat ixlosmandlaridan tortib yirik adabiyotshunoslarga bo‘lgan keng adabiy muhitning doimiy diqqat-markazida bo‘lib kelmoqda.

Bobning ikkinchi fasli **“Adabiyotshunoslikda ijodkor poetik mahorati muammosi talqinlari”** deb nomlangan. Mazkur faslda poetik mahorat tushunchasining jahon va o‘zbek adabiy tafakkuridagi shakllanish va rivojlanish tarixi o‘rganilgan.

Badiiy adabiyot insoniyat tafakkurining eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bo‘lib, uning asosiy vazifasi insonni anglash, hayotni idrok etishdan iborat. V.G.Belinskiy adabiyotning mohiyatini tahlil qilar ekan, “... butun aqliy hayotimiz, hayotimizning butun nash‘u namosi shunda, faqat shu adabiyotdadir”¹⁸, – deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, adabiyotning asosiy vazifasi insonni tushunish, hayotni anglash va uni obrazli shaklda qayta yaratishdir. San’at va badiiy ijod mohiyatiga oid dastlabki nazariy qarashlar antik davrda shakllangan. Ma’lumki, Aristotel san’at mohiyatini mimesis, ya’ni tabiatga taqlid tushunchasi bilan izohlaydi. Uning nazariyasida shoir mahorati voqeani bevosita taqlid qilishda emas, balki voqelikdagi g‘oyaviy-ruhiy mohiyatni badiiy ifodalashda namoyon bo‘ladi. Aristoteldan keyingi eng muhim asar rim adabiyotshunosligiga mansub Goratsiyning “She‘riyat san’ati haqida” bitigidir. Goratsiy Aristotelning poetikaga oid falsafiy g‘oyalarini davom ettirib, poetik mahoratni mehnat, tartib-intizom va badiiylik san’atini egallash darajasi bilan o‘lchaydi. Uning fikricha, poetik mahorat “ilhom”dan “mahorat”ga o‘tish, o‘rganish, mashq qilish bilan belgilanadi. Bizningcha, shu o‘rinda poetik mahoratning shakllanishida ijodkorga xos bo‘lgan tug‘ma iste’dod ham hal qiluvchi omillardan biri ekanini e’tirof etish lozim.

Har bir davrda adabiy tafakkur yangilanishi bilan birga ijodkorning badiiy ifoda uslubi ham o‘zgarib boradi. Shu bois poetik tafakkurdagi har bir yangilanish adabiyot taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab beradi. Badiiy adabiyotning taraqqiyoti ming yilliklar davomida uzluksiz davom etib, u har bir davrda ijtimoiy mazmun, g‘oya va badiiy shakl jihatidan yangi bosqichlarga ko‘tarildi.

¹⁷ Хамдамов У. Ўзбек ва жаҳон адабиётига чизгилар.//Бир шеър таҳлили. – Тошкент: Qamar media, 2026. – Б. 341-344.

¹⁸ Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1955. – Б. 322.

XIX asrning ikkinchi yarmi jahon, xususan, rus adabiyotshunosligining shakllanish va rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Rus adabiyotshunosligi tarixida F.I.Buslayev, A.N.Afanasev, A.N.Popov va A.A.Potebnya singari olimlar adabiyotshunoslik maktabining asoschilari sifatida katta o'rin tutadi. Rus adabiyotshunosligi tarixida A.N.Veselovskiyning "Tarixiy poetika" asari poetik mahorat va tafakkur nazariyasini yangi bosqichga ko'targan ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi. A.N.Veselovskiy o'z ilmiy faoliyatida G'arbiy Yevropa adabiyotining turli masalalariga murojaat qilgan bo'lsa-da, uning eng muhim yutuqlari Uyg'onish davri adabiyoti va Dante ijodini tahlil etish bilan bog'liqdir. Bu davrda adabiyot va yozuvchi uslubi shakllanib, poetik mahoratning yangi bosqichi yuzaga kelgan. Veselovskiy fikricha, "ijodkorning poetik mahorati – bu tarixiy tajriba, madaniy meros va individual sezgirlikning uyg'unligidan tug'iladigan badiiy yangilanish kuchidir"¹⁹. Uning nazariy qarashlari jahon adabiyotshunosligida poetik tafakkur konsepsiyasining shakllanishi va rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Olimning ilmiy maktabi keyinchalik V.F.Shishmarev, M.M.Baxtin, D.S.Lixachev, Y.N.Tixonov singari olimlar faoliyatida davom ettirildi. V.Shklovskiy o'zining mashhur "San'at – bu usul sifatida"²⁰ asarida poetik mahoratni "begonalashtirish" tamoyili bilan bog'laydi. Unga ko'ra, haqiqiy san'at hayotiy narsalarni odatiy idrokdan "begonalashtirib", ularga yangi estetik nigoz bilan qarash imkonini beradi. Badiiy asarda shoir yoki yozuvchi voqelikni shunchaki takrorlamaydi, aksincha, tasvir vositalarini yangilab, uni kutilmagan, noodatiy shaklda taqdim etadi. Shu sababli poetik mahoratning mohiyati ham hayotni ko'chirishda emas, balki uni o'quvchi uchun yangicha idrok ettirish sifatida namoyon bo'ladi. Yuriy Tinyanov²¹ esa adabiy jarayonni izchil rivojlanib boruvchi tizim sifatida talqin qilib, shoir poetik mahoratini adabiy shakllarning tarixiy almashinuvi bilan bog'laydi. Uning fikricha, badiiy mahorat mavjud poetik shaklni yangilash, o'zgartirish va unga yangi imkoniyatlar berish jarayonidir.

Adabiy manbalarda badiiy ijod va poetik mahorat masalasi, asosan, tur va janrlarning tasnifi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Qudama ibn Ja'farning "Naqd un-nasr", "Naqd un-she'r" (IX-X asr), Abu Nasr Forobiyning "Kitob ush-she'r" (IX-X asr), Abdulqohir al-Jurjoniyning "Balog'at sirlari" (XI asr), Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" va "Majolis un-nafois" (XIV-XV asr), Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (XV asr) kabi asarlarda nasr va nazm o'zaro ifoda shakllari sifatida farqlanadi, ularning har biriga xos badiiy va estetik xususiyatlar aniqlanadi. Ijodkorning poetik mahorati esa aynan shu shakllarning qonuniyatlarini mukammal egallash va ularni san'at darajasida qo'llash bilan belgilanadi. Alisher Navoiy muayyan ijodkorning adabiy mahoratini uning ijodiy uslubi bilan bog'laydi. Xususan, B.Valixojayev²² "Majolis un-nafois" asarida nazm ahlining badiiy mahorati borasida fikr yuritilganligiga to'xtalar ekan, Navoiy tasvirning go'zal bo'lishi, badiiy vositalarning o'rinli ishlatilib, ularni asosiy mazmunni

¹⁹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М: Высшая школа, 1989. – С. 29.

²⁰ Шкловский В. Искусство как приём. – Петроград: ОПОЯЗ, 1917. ru.wikipedia.org.

²¹ Тиньянов Ю. Архитектура художественного произведения. –М: Гослитиздат, 1929. ru.wikipedia.org.

²² Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 104.

ochishga xizmat qildirilishini shoir mahoratining mezoni sifatida ko'rsatganligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, ikki maktab – Sharq va G'arb adabiyotida poetik mahorat mohiyat e'tibori bilan yangilik yaratish qobiliyatini bildiradi, biroq bu yangilikka erishish usuli farqlidir. Sharqda an'ana ichidagi yangilanish ramz, ma'no va falsafa orqali ro'y bersa, G'arbda u tildagi soddalik, tabiiylik, his-tuyg'u, shuningdek, noan'anaviy tasvir usullari orqali namoyon bo'ladi. Har ikkisi ham bitta umumiy xulosani tasdiqlaydi, poetik mahorat an'anani ijodiy qayta kashf etish san'atidir.

II bob **“Mumtoz va zamonaviy janrlarning poetik takomili”** deb nomlangan. Bobning **“Matnazar Abdulhakim ijodida mumtoz janrlarning o'rni: an'ana va o'ziga xoslik”** faslida shoirning mumtoz she'riy janrlarga munosabati, an'anani ijodiy davom ettirish tamoyillari tahlil etilgan. G'azal, qit'a, muxammas, fard va boshqa mumtoz she'riy janr va shakllarda Pahlavon Mahmud, Navoiy, Bedil, Ogahiy an'alarining davomchisi sifatida shoirning poetik mahorati ochib berilgan.

Xalq og'zaki ijodi an'alaridan bahramandlik hamda Sharq mumtoz adabiyoti, jahon adabiyotidan ijodiy ilhom va rag'bat olish, shuningdek, noyob iste'dod M.Abdulhakimning serqirra ijodkor sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Uning ijodida mumtoz adabiyotimizning g'azal janri yetakchilik qiladi. Adabiyotshunos H.G'ayipova shoir merosida 84 ta g'azal borligini ta'kidlaydi²³. Uning hayotlik paytida o'zi tartib bergan “Javzo tashrifi” saylanmasida 56 ta g'azal bo'lib, bir g'azal ikki o'rinda keltiriladi, shunda jami bu kitobda 55 ta g'azal bor. Qolgan g'azallari shoirning II jildlik “Tanlangan asarlar”i, “Ko'priq”, “Oydinlik” kabi bir qator she'riy to'plamlariga kiritilgan. G'azallar badiiy ijodga xos takroriylikdagi betakrorlikning, an'anani novatorlik bilan boyitishning go'zal namunasi bo'lish bilan birga, muallifning mumtoz she'riyatga, xususan, g'azaliyotga cheksiz muhabbatining ifodasi hamdir.

Yana bir jihatni ta'kidlash lozimki, shoir g'azal maqta' bandlarida taxallus qo'llash masalasida o'ziga xos ijodiy yondashgan. U ayrim g'azallarida shoirlik taxallusini umuman ishlatmaydi, bu esa bevosita XX asr adabiyotidagi mafkura ta'siridagi yangi tendensiyalar bilan bog'liq bo'lishi yoki buni shoir shaxsiyatidagi kamtarlikka ham yo'yish mumkin. Ba'zi g'azallarda esa vazn talabi bilan “Matnazar” yoki “Abdulhakim”, “Firoq zulmatda poyon bo'lsa, bo'ldi...” deb boshlanuvchi bitta g'azalida esa “Muhammadnazar” taxallusi qo'llanilganligini kuzatdik. M.Abdulhakim g'azaliyoti poetik ijodda an'ana va novatorlikning yaxshi namunasi. Bu g'azaliyot an'ana bag'ridagi o'ziga xoslikning hozirgi she'riyat uchun ham muhim xususiyat ekanini ko'rsatdi va janrning ijodiy takomiliga o'ziga xos hissa bo'lib qo'shildi. Shoir g'azallarini mavzu ko'lami jihatdan ishq-muhabbat, falsafiy, ijtimoiy va tabiat mavzusidagi g'azallarga ajratish mumkin. Ayniqsa, shoir ijodida ishqiy mavzudagi g'azallar yetakchilik qiladi. Jumladan, “Xabaring yo'q”, “Kelur, kelsang”, “Kerak”, “Bir vaqtlari”, “Kelmas”, “Jonim”, “Vaqti yetdi”, “Asrangiz”, “Xabarsiz”, “Talabinda”, “Ko'rsat”, “Yurakda”,

²³ Файипова Х. Теран тафаккур ва тиниқ туйғулар куйчиси. – Урганч: УрДУ ноширлик бўлими, 2021. – Б. 51.

“Mahkum”, “Yo‘q”, “Har kun”, “Kelmas” radifli ishq-muhabbat mavzusidagi qator g‘azallari dissertatsiyada atroflicha tahlilga tortildi.

Shoirning “Xabaring yo‘q” radifli g‘azali oshiqning ma’shuqaga qaratilgan nolasi bilan boshlanadi va g‘azal davomida, quyidagi shoh baytda shoirning asl maqsadi namoyon bo‘ladi:

Ishq bo‘lmasa koshonai baxt kunpayakundir,

Ishq tuyg‘usidir eng buyuk me‘mor, xabaring yo‘q.

– deya ishq haqidagi ohorli fikrlarni bayon etadi. Bu yerda ishqning me‘morga qiyoslanishi M.Abdulhakimning badiiy topilmasidir. Shu o‘rinda shoir inson uchun birlamchi uy uning vujudi ekanligini ta’kidlagan donishmand Pahlavon Mahmudning qarashlarini bevosita davom qildirganini ham ta’kidlash joiz. Demak, inson vujudining me‘mori ishq bo‘lib, ishqsiz uy har qanday koshona bo‘lsa ham “kunpayakun” bo‘lajagini, ya’ni uy qanchalik hashamatli, boylik va nafislik bilan bezalgan bo‘lmasin, agar unda ishq yo‘q bo‘lsa, u vayronadir, sovuq va hissiz maskandir. Baytdagi “ishq tuyg‘usidir eng buyuk me‘mor” degan satrlar orqali ishq hayotning, inson vujudining, borliqning yaratuvchisi sifatida talqin qilinadi.

Shoir ijodida falsafiy mazmundagi g‘azallar ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu turkumdagi g‘azallarda hayot, borliq va sof insoniy tuyg‘ular mushohada etiladi. Xususan, ushbu misralarda:

Baxt qushidirmiz, qo‘naylik bir-birovning ko‘ngliga,

Chunki yer kimlarda yo‘qdir, osmon kimlarda yo‘q.

– deya shoir baxt tushunchasini ramziy obraz – “qush” orqali ifodalaydi. Ma’lumki, xalq orasida “boshiga baxt qushi qo‘ndi” iborasi keng qo‘llanilib, inson hayotida kutilmaganda yuz beradigan omad, muvaffaqiyat yoki saodat kelganda aytiladi. Qush uchib kelgani kabi baxt ham inson hayotiga tasodifan kirib keladi, qo‘ngani kabi muayyan muddat turadi, biroq uchib ketishi ham ehtimoldan xoli emas. Shoir mahorati shundaki, bu o‘rinda u baxt qushini insonlarning boshiga emas “ko‘ngilga” qo‘nishi tarzida qo‘llaydiki, baxtning manzili sifatida inson qalbi ko‘rsatiladi. Keyingi misrada tasvir yanada quyuqlashadi, shoir ifodaga kuchliroq falsafiy ruh berib, muhim ijtimoiy muammoni qalamga oladi. Baytda “yer” va “osmon” qarama-qarshi tushunchalari orqali borliqning umumiyligi va insonlarning tengligi falsafiy jihatdan asoslanadi va baxtni bir-birovning qalbidan topish, o‘zaro mehr va hamjihatlikda yashash g‘oyasi ilgari suriladi. Mazkur g‘oya Matnazar Abdulhakim she’riyatining butun mazmun-mohiyatini qamrab olgan yetakchi falsafiy-estetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Matnazar Abdulhakim ijodida mumtoz janrlarning o‘rni, an’ananing tadrijiy davom etishi, falsafiy xulosalarning g‘azallar qatiga mohirona singdirilishi hamda salaflariga xos shakl va mazmun bobidagi munosib davomchilik, eng avvalo, shoirning tasavvuridagi yangilanishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Zero, “tasavvurni yangilamay turib, na metaforani, na so‘zni yangilab bo‘ladi, tushunchalar voqelik turgan joyda faqat ismdir. Voqelik tasavvurga aylangach esa uning evrilish jarayoni kuchayadi”²⁴. Darhaqiqat, Matnazar Abdulhakim g‘azallari

²⁴ Xolova M. O‘zbek modern she’riyati: tarixi va nazariyasi. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z DUK, 2018. – B. 75.

asriy an'analar negizidan oziqlangan bo'lsa-da, unda bu vorisiylikning qat'iy qolipi emas, balki o'ziga xos donishmandona tafakkuri, original badiiy-falsafiy fikrlari ustuvorlik qiladi.

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmida g'azal janrining betakror namunalarini yaratgan shoirlardan biri Erkin Vohidovdir. U aruz vaznida betakror g'azallar bitib, bu janrda zamonamiz kishisining ichki dunyosini, uning qalbidagi yor muhabbati bilan el mehri, vatan sevgisini, olam haqidagi o'ylarini tasvirlab, bu janrning go'zal namunalarini yaratdi. Uning g'azallarida sadoqat, sevgi-muhabbat, do'stlik, mehr tuyg'ulari teran tarannum etiladi. Erkin Vohidov g'azallari bilan Matnazar Abdulhakim ijodi o'rtasida o'zaro hamohanglik, qator mushtarakliklar mavjud. Bular: 1) g'azal janriga zamonaviy ruhni uyg'unlashtira olishda; 2) ishq-muhabbat mavzusining ustuvorligida; 3) shaxsiy hikmatli fikrlarning yorqinligida; 4) mumtoz adabiyotni chuqur bilish va anglashda namoyon bo'ladi.

Buni ayrim g'azallar misolida ko'rish mumkin. Jumladan, ikkala shoirda ham "Yo'q" radifli g'azal bo'lib, muhabbat mavzusi tarannum etiladi. Matnazar Abdulhakim:

Mening Layli-yu Shirin o'rnida sen sarvinozim yo'q,

Na Farhodga, na Majnunga, iloj qancha, qiyosim yo'q²⁵, – desa, Erkin Vohidov:

Sevgi vodiysida menga teng bo'lgay qaysi Qays,

Ko'nglim ochsam ikki dunyo bu kabi afsona yo'q²⁶, – deydi. Ikkala baytda ham betakror sevgi tarannum etilib, afsonaviy Layli-yu Shirin, Farhod-u Majnun (E.Vohidovda – Qays) obrazlari vositasida sevgini ulug'lab, qadrlashga urg'u beriladi.

Matnazar Abdulhakim ijodida Ogahiyning "So'z" radifli g'azaliga bog'langan muxammas ham mavjud bo'lib, asar shoirning an'anaga ijodiy yondashuvini, mumtoz merosni zamon ruhiga mos talqin etish mahoratini yaqqol ko'rsatadi. Muxammasda shoirning o'z davri bilan bog'liq ruhiy izlanishlari, inson, so'z va ma'naviyat haqidagi falsafiy qarashlari badiiy ifodasini topgan. Unda mumtoz so'z san'atiga hurmat, yangicha mazmun va o'ziga xos poetik nafas seziladi. Shoir bu muxammas orqali Ogahiy ijodidagi badiiy ifodani, so'zning ilohiy qudratini, inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni qayta talqin qiladi. Matnazar Abdulhakim o'tmish va bugun o'rtasidagi badiiy bog'liqlikni saqlagan holda, an'anaviy shaklni zamonaviy mazmun bilan boyitgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi:

Anglamaydir dardlaringni, qotmag'il shodong'a so'z,

Berma hech istakka erk, bergil mudom imkong'a so'z,

Yo'q bo'lur zulmat, oxir, yetgan mahalda tongg'a so'z,

Ey ko'ngil, odam xayol aylab dema nodong'a so'z,

Chunki ul inson emas, topsang degil insong'a so'z.

Ma'lumki, Sharq adabiy tafakkurida so'z har doim muqaddas tushuncha bo'lgan. So'z tafakkur, ma'rifat, idrok, insoniylikning timsolidir. Ogahiy o'z

²⁵ Вохидов Э. Севги шундай навбахорки. Шеърлар. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018, – Б. 34.

²⁶ Абдулҳаким М. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. – Б. 274.

davrida soʻzni ruhiy qudrat, maʼnaviy poklik mezoni sifatida ulugʻlagan boʻlsa, Matnazar Abdulhakim bu gʻoyani bugungi zamon ruhida davom ettiradi. U soʻzning inson hayotidagi ahamiyatini, uni toʻgʻri ishlatish va qadrlash zaruratini teran falsafiy ohangda ifodalaydi. Shoir uchun soʻz – ezgulikning, adolatning, maʼnaviyatning mezoni. U soʻzning ikki qirrasini – nur va zulmat, hikmat va jaholat oʻrtasidagi ziddiyat sifatida talqin etib, inson maʼnaviy kamolotini belgilovchi omil ekanini taʼkidlaydi.

Matnazar Abdulhakim ijodida fard janrining yagona namunasi bor, bu fard shoirning “Fasllar qoʻshigʻi” toʻplamiga kiritilgan:

Oʻzgaga lutf aylading, oʻldim hasadimdan,
Hatlab oʻtar u sen sari endi jasadimdan²⁷.

Bu fard janrning qoidalariga, yaʼni ikki misralik, qofiyadosh, ixcham tuzilishiga rioya qilgan. Keltirilgan misoldagi qofiyalangan soʻzlar “hasadimdan” va “jasadimdan” har bir misradagi maʼno mustaqilligini koʻrsatadi. Misralar oʻzaro ichki mantiqiy maʼno birligi orqali bogʻlangan. Har ikkala misra ham qofiyalangan soʻzlar sababli alohida olinganda ham mustaqil maʼnoga ega. Bilamizki, qofiyali fard nafaqat muallifning mahoratini namoyon etadi, balki fardning muvaffaqiyatli chiqishiga ham xizmat qiladi. Shoirning bu fardida fikrni ixcham, loʻnda ifodalash, ulkan gʻoyani ikki misraga yorqin va taʼsirchan singdirish, aniq xulosa va dalillarni keltirish mahoratini kuzatamiz.

Bobning ikkinchi fasli **“Zamonaviy sheʼriy janrlar: mavzu koʻlami, gʻoya va poetik obraz mushtarakligi”** deb nomlanadi. Matnazar Abdulhakim sheʼrlari, avvalo, mavzu doirasining kengligi, falsafiy-mushohadaga boyligi, ramziy-majoziy talqin ustuvorligi, poetik tafakkur mahorati hamda shoir nigohining oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Shoir ijodiga xos asosiy mushtarak jihat – bu hayot haqiqatlarini goʻzal badiiyat bilan jilolantirish, isteʼdod va hissiyot uygʻunligini namoyon etish hamda fikrni taʼsirchan, chuqur mazmunda ifodalashdir. Sheʼrshunos U.Hamdamov istiqlol davri sheʼriyatidagi mavzular koʻlamini quyidagicha belgilaydi: 1) ishqiy; 2) vatan; 3) madhiya-bagʻishlov; 4) tarixiy; 5) pand-nasihat; 6) oʻlim; 7) aforistik; 8) diniy-maʼrifiy; 9) har xil mavzular²⁸. Shunga tayanib, Matnazar Abdulhakim ijodining mavzu koʻlamini quyidagicha tasniflash mumkin: 1) ishq-muhabbat; 2) hijron va ayriliq; 3) vatan va vatanparvarlik; 4) falsafiy-aforistik; 5) tabiat; 6) madhiya-bagʻishlov; 7) tarixiy va har xil mavzudagi sheʼrlar mavjud. Ayniqsa, shoirning ishqiy lirikasi uning sheʼriyatida asosiy oʻrinni egallaydi. Shoirning anʼnaviy barmoq tizimida yaratilgan sheʼrlarida muhabbat, sogʻinch, hijron, diydor, sadoqat kabi umuminsoniy tushunchalar ulugʻlanadi. Buni ijodkorning qator sheʼrlari tahlili misolida koʻrishimiz mumkin:

Bir qayrilib tashlasang nigoh,
Yurak toʻlar soʻnmas ziyoga...

²⁷ Абдулҳаким М. Фасллар қўшиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 28.

²⁸ Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 7.

Seni bir bor ko‘rish-chun faqat
Kelib ketsa arzir dunyoga²⁹.

Ijodkor yuqoridagi she‘rda bu olamdagi yaratilarning eng go‘zali va tansig‘i hisoblangan ikki oshiq qalb diydorini benihoya go‘zal tasvirlaydi. U oshiqning o‘z yoriga bo‘lgan cheksiz muhabbatini uni bir bor ko‘rmoq uchungina bu dunyoga kelib ketish mumkinligi bilan izohlaydi. Nazarimizda, bu badiiy topilma she‘riyatda ishq va diydorga berilgan eng yuksak ta‘riflardan biridir.

Matnazar Abdulhakim ijodida ishq tasviri bilan barobar judolik va sog‘inch motivi yoritilgan she‘rlar ham juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ijodkor ayriliqni o‘ziga xos tarzda betakror misralar bilan ta‘riflaydi. Uning “Og‘riq” sarlavhali she‘rida lirik qahramon tilidan ayriliqdagi oshiqning ruhiy holati nozik ma‘no qirralari orqali aks ettiriladi:

Deylik qo‘li kesib tashlangan odam
Yo‘q qo‘l zirqirashin his qilar emish.
Sevgilim, men seni sog‘indim qattiq,
Azob chekmakdaman, og‘riyapsanmi?³⁰

Ma‘lumki, insonga hamisha uning yo‘qotganlari azob beradi. Qalb o‘zidagi bo‘shliq va jarohatni aslo unutmaydi. Shoir ana shu yo‘qotish, ya‘ni ayriliq og‘rig‘ini go‘yo qo‘li kesib tashlangan odamning o‘z vujudida aynan o‘sha qo‘lning zirqirashini mudom his qilishiga mengzaydi. O‘zini tanaga qiyoslasa, yorini ana shu tananing ajralmas qismi bo‘lgan qo‘lga tashbeh qiladi. Bu o‘rinda shoir inson o‘zi uchun qadrdon bo‘lgan vujudining bir parchasidagi og‘riqni har lahza ichdan his qilgani kabi qalban juft yaralgan ikki insonning biri sog‘inchdan iztirob chekayotgan mahalda ikkinchisi ham ana shu dardni ko‘nglidan o‘tkazishini falsafiy tarzda go‘zal dalillaydi. Mazkur she‘rni taniqli o‘zbek shoiri Asqad Muxtorning quyidagi misralari bilan mazmun jihatdan qiyoslab tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

Sen yo‘qsan, rishtalar parkand-parkand,
Og‘rig‘idan tunlar sassiz dodlayman,
Bir askar so‘zlarin yodlayman:
Yo‘q oyog‘i og‘rib qiynarkan...³¹

Keltirilgan misralarda ham xuddi yuqorida tahlilga tortilgan she‘rdagi kabi ikki qalbning hijron kunlaridagi holati manzarasi tasvirlanadi. “She‘r – shoirning dilidagi gapi, oshkor qilayotgan dardi, izhor etayotgan muhabbati. Ma‘lumki, har bir insonning ko‘nglidagi gapi, uni bezovta qilgan dard va izhor etilgan sevgisi faqat o‘ziga tegishli va boshqa hech kimda takrorlanmaydigan bo‘ladi. Zero, taqdir qaytarilmasdir”³². Anglaganimizdek, har ikkala asar ham donishmand ijodkorlarning mahorati tufayli mazmunan uyg‘unlik hosil qilsa-da, ayrim jihatlari bilan bir-biridan farqlidir. Har ikkala ijodkor ham qalb og‘rig‘ini o‘z qarashlari va estetik idealidan kelib chiqqan holda teran falsafiy fikrlar vositasida go‘zal tarzda bayon etgan.

²⁹ Абдулҳаким М. Жавзо ташрифи. – Тошкент: Шарк, 2008. – Б. 8.

³⁰ Абдулҳаким М. Жавзо ташрифи. – Тошкент: Шарк, 2008. – Б. 26.

³¹ www.ziyouz.com.

³² Ёўлдошев Қ. Очкич сўз. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – Б. 258.

Matnazar Abdulhakim ijodida she'riyat tushunchasining nechog'lik ulug'vor ekanligi teran ifodalanadi. Ijodkorning bu mavzuda yaratilgan badiiyat namunalarida shoir shaxsiyati ham aks etadi. Shoir "Javzo tashrifi" to'plamidan o'rin olgan "Da'vat" she'rida shunday yozadi:

"O'n million, yuz million va milliard nafar"

Hammamiz sig'amiz she'riyat – taxtga³³.

Ijodkor e'tiroficha, she'riyat shunday taxtki, bu taxtga shoh ham, gado ham birdek sig'adi. She'rning ilk satrlaridayoq shoir barcha zamonlardagidek, bir-biri bilan maydon talashayotgan shoirlarning kurashlariga zarba beradi go'yo. Zero, she'riyat kurash maydoni emas, u inson qalbiga osudalik bag'ishlovchi, dardiga malham bo'luvchi ne'matdir.

Mavzu, obraz, badiiyat va ifoda rang-barangligiga asoslanish, original badiiy umumlashmalarga kela olish donishmand shoir lirikasining asosiy xususiyatlaridan sanaladi. Shoirning "Qo'riqxonada" sarlavhali she'ri insoniyatni ona tabiat bag'ridagi hayvonot dunyosini anglashga chorlaydi. She'rda aks etgan hodisalar adib Eshqobil Shukurning "Qayg'u chimildig'i"³⁴ nomli hikoyasi bilan o'xshashlik kasb etadi. Chunki bitta hayotiy voqea, ya'ni, "Qizil kitob"ga kirgan qoplon o'limi ijodkorlarni o'z yo'nalishida turli janrlarda yozishga ilhomlantirgan. Matnazar Abdulhakim o'z she'rida so'nggi qoplonning o'limini nafaqat hayvonot dunyosi, balki butun insoniyatning fojiasi sifatida ko'rsatadi.

Olisdagi qoplon sezar bu o'limni,

Faryodi uning-da boshiga yetar.

So'nggi qoplon o'ldi. Endi bu motamdan

"Qizil kitob" badtar qizarib ketar³⁵.

Qoplon yovvoyi tabiat vakili bo'lsa-da, ijodkor uni insoniy fazilatlar – sadoqat, vafodorlik, erkka tashnalik, juftga muhabbat kabi xislatlarga ega holda tasvirlaydi. Mazkur holat qoplon o'limining sababini yanada fojiali qiladi: u tabiiy dushmanidan emas, balki juftidan, erkinligidan judo bo'lgani, atrofini qurshab olgan sun'iy, tor va g'ayritabiiy muhit ta'siridan nobud bo'ladi. Demak, o'limning asl manbayi – tabiatning o'zida emas, balki inson tomonidan yaratilgan "mahdud borliq"dadir. Keyingi badda qoplonning o'limida insoniyatning aybi borligini "Qizil kitob" ifodasida juda ta'sirli aks ettiradi. Qadriyatlar, tabiat, insoniyatning eng noyob fazilatleri yo'qolib borar ekan, ularni ro'yxatga olish bilangina cheklanadigan jamiyatning ojizligi shoir tomonidan kinoyali tarzda fosh etiladi.

"Dastimizdan bizning oshiq qoplon o'ldi,

Tokay o'zimizdan ketib yashaymiz.

Tokaygacha mushuklar boshini silab,

Qoplonlar boshiga yetib yashaymiz?!"

Yakuniy badda kuchli sarkazm ustuvorlik qiladi. Shoir jamiyatdagi notekislikni – ayrim mavjudotlarning boshini silab, haqiqiy kuch va oriyat

³³ Абдулҳаким М. Танланган асарлар. II том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 48.

³⁴ Эшқобил Шукур. Аср афсоналари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 32.

³⁵ Абдулҳаким М. Жавзо ташрифи. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 327.

sohiblarini yo‘q qilishga moyillikni keskin tanqid qiladi. Bunday jarayon qoplon fojiasining ijtimoiy ildizini ochib beradi: inson o‘zi o‘z qadriyatlariga qarshi qo‘l ko‘targan jamiyatda yovvoyi tabiat vakillarining emas, balki eng avvalo, insoniylikning o‘zi halokatga yuz tutadi. She‘r qoplon obrazi orqali insoniyatning tubanlashuvi, tabiatning izdan chiqishi, jamiyatning axloqiy tanazzuli va qadriyatlar inqirozi haqidagi chuqur falsafiy xulosalarni o‘zida mujassam etadi. “Mushuk” timsolidagi pastkash, xudbin kimsalarning adolatsizligi oldida bosh egib, mard, jasur “qoplon”larning boshiga yetib, ularni yo‘q qilish holati, afsuski, insoniyat tarixida doimiy uchrab turgan, buning uchun qatag‘onlik yillarini esga olishning o‘zi kifoyadir. Shoir mahorati qoplon o‘limi bilan bog‘liq bitta kichik voqeadan katta hayotiy ibratli xulosa chiqara olganida ko‘rinadi.

Matnazar Abdulhakim ijodida balladalar ham mavjud. “Avtobus haqida ballada”, “Turnalar haqida ballada” she‘rlarida dolzarb mavzular qalamga olinadi. Shoirning “Turnalar haqida ballada”sida shunday misralar mavjud:

Turnalar juda ham donishmand qushlar,
Ular sadoqatli, mehribon, marddir.
Ular biladilar vatan diydorin,
Qo‘msab azob chekmoq ulug‘ bir darddir³⁶.

She‘rda turna timsoli orqali yurtga sadoqat ulug‘lanadi. Bu she‘r issiq o‘lkalarda qishlashga majbur bo‘lgan qushlarning qismati haqidagina emas, tirikchilik tashvishida olis ellarda yurgan insonlar kechmishi haqida ham hikoya qiladi.

Matnazar Abdulhakim she‘riyatida lirikaning o‘ziga xos janrlaridan biri – sonet alohida o‘ringa ega. Shoirning “Mahzun un chekadi nay yoralari”, “Daryo – men, daryo – sen, daryo – u” kabi sonetlar gulchambari zamonaviy o‘zbek she‘riyatining go‘zal namunalaridan sanaladi. Birinchi sonetda muhabbat mavzusi yetakchilik qilsa, “Daryo – men, daryo – sen, daryo – u” sonetlar gulchambarida ijtimoiy masalalar, suvni qadrlash, e‘zozlash g‘oyalari ilgari suriladi.

Tadqiqotning III bobi **“Shoir dostonlarida poetik mahorat”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasli **“Javzo arafasi” va “Ko‘chki” dostonlarida falsafiy-ijtimoiy mavzularning badiiy talqini** deb nomlangan. Ushbu faslda Matnazar Abdulhakim dostonchiligidagi badiiy-falsafiy izlanishlar, shakliy yangilanishlar hamda tarixiy va umuminsoniy g‘oyalar poetik talqini tahlil etilgan. Mustaqillik yillari o‘zbek adabiyotshunosligida she‘riyat, xususan, dostonchilikdagi shakliy-uslubiy izlanishlar, o‘ziga xos poetik uslub va ijodkor individualligi masalalariga keng e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, lirik kechinma asosiga qurilgan dostonlar tabiatida tasvirning qabariqligi, his-tuyg‘uning boyligi, kompozitsion jihatdan o‘ziga xosligi kuzatilmoqda. Matnazar Abdulhakim lirik merosida dostonlar ham alohida o‘ringa ega. Uning “Javzo arafasi”, “Ko‘prik”, “Ko‘chki” dostonini zamonaviy o‘zbek she‘riyatining o‘ziga xos yutug‘i sifatida baholash mumkin bo‘ladi.

³⁶ Абдулҳаким М. Сайланма. I том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017 – Б. 18.

Adabiyotshunos N.O‘roqova so‘nggi yillar o‘zbek dostonlari taraqqiyoti bilan bog‘liq muhim xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘lganligini ta’kidlaydi:

“1. Uslubning yangilana borishi: xalqona qissago‘ylik, xalq dostonlari uslubiga xos nazm va nasrdan foydalanish.

2. Diniy sarchashmalarga chuqur kirib borish, dostonchilikka tasavvufiy ohanglarning kirib kelishi.

3. Janrlar sinkretlashuvi jarayonining tezlashganligi, dostonlarda drama va romanga yaqinlashuvning kuzatilishi.

4. Millat va Vatan tarixida munosib nom qoldirgan shaxslar obrazlarini badiiy gavdalandirish.

5. Modern uslubi”³⁷.

Yuqorida qayd etilgan zamonaviy o‘zbek dostonlari taraqqiyotiga xos jarayonlar Matnazar Abdulhakim ijodida ham yorqin ko‘zga tashlanadi. Shoir dostonlari mavzu va g‘oya yangiligi, poetik qurilishi jihatidan ham o‘zbek dostonchilik an‘anasida yangi uflarni ochdi.

“Javzo arafasi” – shoir ijodidagi kichik hajmli dostonlardan biri bo‘lib, unda lirik qahramonning hayotsevarlik tuyg‘ulari va sevisish hamda sevilishga intilgan pokiza qalb olami liro-romantik ruhda badiiy talqin etiladi. Shoir bejiz dostonni “Javzo arafasi” deb atamaydi, chunki “javzo” (22-may – 21-iyun) – yozning boshi, issiq kunlarning boshlanishi. Bu yerda javzo inson qalbiga olovli tuyg‘uning tushishi – muhabbat ma’nosini anglatadi. “Arafa” esa ushbu cho‘qqiga yetish oldidagi tayyorgarlik jarayonidir. Darhaqiqat, muhabbat – bu inson umrining eng haroratli fasli, bu baland cho‘qqi oldidagi kechinmalar ham o‘zi kabi yuksakdir. Dostonda lirik qahramon – oshiqning ichki kechinmalari, hayotga mehr bilan boqishi, muhabbatni inson mavjudligining ma’naviy tayanchlaridan biri sifatida anglashi poetik yaxlitlikda ochib berilgan.

Matnazar Abdulhakim ijodida “Ko‘chki” dostoni alohida o‘ringa ega. U ijtimoiy-falsafiy doston bo‘lib, muallif asarni arab shoiri Abu Mansur As-Saolibiy (XI asr)ning tazkirasiga kirgan shoirlar asarlaridan ta’sirlanib yozganligi uchun ham “Yatimat ad-dahr” ohanglarida” degan izohni berib o‘tadi. Dostondagi she’rlarning har bir bandi 8, 10, 12 misradan iborat. Yana bir jihati shundaki, “Yatimat ad-dahr” asari tazkira janriga mansub bo‘lgani uchun unda har xil shoirlar qalamiga mansub turli she’riy parchalar berib o‘tilgan. Ya’ni tazkiradagi she’riy parchalar har xil mavzularga taalluqli bo‘lgani kabi, “Ko‘chki” dostonidagi she’riy bandlar ham turli masalalarning badiiy talqiniga mansub. Shu jihatdan, dostonni donishmandlikka yo‘g‘rilgan hayot haqiqati haqidagi badiiy madhiya deyish mumkin. Matnazar Abdulhakim ijodini bir dengizga qiyos etsak, ushbu turkum shu dengizning eng qimmatbaho marjoni kabidir. Chunki turkumdagi har bir she’r o‘zidan oldingi yoki keyingi she’rning davomidek tuyuladi, lekin har bir she’rda mantiqan tugallik bor. Turkum 144 ta she’rdan tashkil topgan bo‘lib, e’tiborli jihati shundaki, har bir she’r alohida qo’shtirnoq ichida beriladi. Bizningcha, she’rlarning qo’shtirnoq ichida berilishining bir nechta sabablari bor.

³⁷ Ўроқова Н. Сўнги давр ўзбек дostonчилигида ижодкор услуби ва индивидуаллиги (Икром Отамурод ва Усмон Қўчқор дostonлари мисолида): Филол.фан.бўйича фал.док.(PhD) дисс. автореферати. – Қарши, 2019. – Б.12.

Birinchidan, bu, avvalo, dostonning sarlavhasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. “Ko‘chki” deb nomlanishining sababi shundaki, u ramziy ma’noda kelib, doston mazmunidagi g‘oyalar “Yatimat ad-dahr” asaridan shoir tafakkuriga ko‘chgan, so‘ngra u tafakkuridagi bu g‘oyalarni o‘ziga xos badiiy shaklda doston satrlarida aks ettirgan. Matnazar Abdulhakim X asrdagi faylasuf-shoirlarning hayot va muhabbat, inson umri mazmuni va uning o‘tkinchiligi, ezgulik va yovuzlik haqidagi o‘y-fikrlarini, ular tomonidan ilgari surgan g‘oyalarni XX asr ruhiga moslab ijodiy talqin qiladi. Ikkinchidan, Matnazar Abdulhakim mumtoz shoirlar g‘oyalarini o‘rganish jarayonida, “Yatimat ad-dahr”ni tadqiq va tarjima qilgan manbashunos, matnshunos olim Ismatulla Abdullayevning ilmiy-tarjimaviy xizmatlariga chuqur hurmat bilan yondashib, olimning nasriy tarjimasi ta’sirida nazmiy parchalarni bitgan va shu orqali o‘zining poetik mahorati hamda estetik tafakkurini namoyon qila olgan. Uchinchidan, shoir asarni tom ma’noda o‘zining ijod namunasi sifatida taqdim etmagan, bu esa uning shaxsiyatidagi kamtarlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Dostonning muqaddimasini “Yatimat ad-dahr” muallifi Saolibiyga murojaat bilan boshlaydi. Dastlab shoir Xorazmning shonli tarixiga ishora qilib:

Dodlar solib keldi kimlardir,

Otlar solib keldi kimlardir.

Oxir mag‘lub ketmoqlik uchun

Avval g‘olib keldi kimlardir.

Bu yerda Xorazm tarixidagi bosqinchilik urushlari, “dod solib”, “ot solib” kelgan yovlarning alal-oqibat mag‘lub bo‘lib ketganligi eslatiladi. Xorazm ahli o‘z boshidan ko‘p zulm va tajovuzlarni o‘tkazgan bo‘lsa-da, har safar bosqinchilar ustidan g‘alaba qilgan, o‘z erki va sha’nini saqlab qolgan xalq sifatida tasvirlanadi. “Donish izlab kelding donishmand”, “Naql izlab kelding, ey arab” deya sayyoh As-Saolibiyning ezgu maqsadda kelganiga ishora qiladi.

Matnazar Abdulhakimning “Yatimat ad-dahr” tazkirasidan ta’sirlanishi “Ko‘chki” dostonida ikki xil tarzda namoyon bo‘ladi:

1. “Yatimat ad-dahr”dagi shoirlar qo‘llagan obrazlarni olib, o‘ziga xos yangi mazmun va g‘oyani ifodalaydi.

2. “Yatimat ad-dahr”dagi ham obraz, ham g‘oyani shakllantirib, zamonaviy tafakkur bilan boyitadi. Bu ikki xil ta’sirlanishning uyg‘unlashuvi “Ko‘chki” dostonining badiiy-estetik mohiyatini yanada teranlashtirgan.

Matnazar Abdulhakim “Yatimat ad-dahr”dagi shoirlar hayoti, o‘sha davr – IX-X asr mumtoz adabiyot manzarasini o‘rganish barobarida ularning baytlariga monand misralar bitadi. Xususan, “Yatimat ad-dahr”ning to‘rtinchi qismi bo‘lgan “Tatimmat al-yatima”da al-Husayn al-Alaviyning sevgi va vafo haqidagi go‘zal she‘rlari beriladi. U haqda shunday ta’rifni keltiradi: “Agar uning go‘zal she‘rlarini yozganimda, ushbu kitobning hammasini band qilgan bo‘lardi, lekin qisqartirish va cho‘zilmaslik shartiga rioya qilsin deb, ulardan bir jilvanigina yozyapman. Qasidadan uning so‘zi: To‘lin oy kabi qancha kiyik bolalariki, u [oy] aylanadigan o‘qi tepasiga [qalamda] yozilmagan ikkita xat [qosh]ni zohir qilgan. Chekkasida chayon zirak o‘rniga [gajak bo‘lib] aylanib turibdi, chayonni zirak qilib taqqan

to‘lin oyni kim ko‘rgan?”³⁸. “Yatimat ad-dahr”da al-Husayn al-Alaviy ma’shuqaning go‘zalligini oyga qiyoslaydi, albatta, bu an’anaviy tasvir. Bu yerda kiyik bolalarining o‘ynab, sakrayotgan holati ma’shuqaning noz bilan qosh qoqishiga o‘xshatilishi esa noan’anaviy, original tashbeh bo‘lib, o‘ziga xos badiiy topilmadir. Mumtoz adabiyotda kiyik (ohu) va uning bolasi ko‘pincha noz, latofat va beqaror harakat timsoli sifatida qo‘llanadi. Uning tasvirlashicha, ma’shuqaning yuzi to‘lin oyga o‘xshaydi, qoshi shu qadar go‘zal va nafiski, u qalamning uchida chizilmagan bo‘lsa-da, ikkita nozik qosh “oyni tepasida” tabiiy ravishda paydo bo‘lgandek ko‘rinadi. Uning yuzidagi bezaklar orasida chayon shaklidagi zirak o‘rnini bosadigan gajak, zulf ham mavjud bo‘lib, u go‘zallikni yanada ajib, hatto, biroz xavfli ko‘rsatadi. Shoir hayrat bilan bunday nozik va yorqin to‘lin oyga o‘xshash chehra chayonni zirak sifatida taqqanini kim ham ko‘rgan deya ritorik murojaat qiladi. Matnazar Abdulhakim esa bu g‘oyani davom ettirib, dostonida ma’shuqani oydan ham go‘zal obraz sifatida tasvirlaydi:

“Sen oy kabi olislardasan,
Sen oy kabi yaqinsan ko‘zga.
Ishqdan bo‘lak ilojim yo‘qdir,
Choram yo‘qdir sevmოდan o‘zga.
Bilmadim, kim sari talpinar
Qor siyna ostida yuraging”,
Demoqchiydim quloqqinangga,
Chayon bo‘lib chaqdi ziraging”.

Matnazar Abdulhakim Alaviy qo‘llagan obrazlarni olib, yangi mazmun va g‘oyani ifodalaydi. Shoir ma’shuqani bir vaqtning o‘zida ham uzoq (qo‘l yetmas), ham nihoyatda yaqin (qalbdagi) bo‘lib tuyulishini ta’kidlaydi. Lirik qahramon – oshiqning muhabbati shu qadar kuchliki, bu haqida ma’shuqaga og‘iz ocha olmaydi, jim sevishtan o‘zga yo‘l topolmaydi. Shoir sevgilisining yuragi kim sari talpinayotganini tushunolmay, shubha va iztirobga tushadi. U sevgan ayolga mehrli so‘zlar aytmoqchi, ichidagi tuyg‘ularini qulog‘iga shivirlamoqchi bo‘ladi, biroq bunga ayol taqqan chayon shaklidagi zirak xalaqit beradi. Bu zirak go‘yoki chayon kabi “chaqadi”, ya’ni lirik qahramonning umidini, yaqinlashish istagini “chaqib” to‘xtatadi. Shu o‘rinda, mumtoz adabiyotdagi an’anaviy “oshiq, ma’shuqa va ag‘yor” uchligi mazmunan transformatsiyaga uchrab, bu yerda “oshiq, ma’shuqa va chayon” shaklida kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shoirning “Ko‘chki” dostonini inson umri mohiyati va hayot qadri falsafasining badiiy in’ikosi, deyish mumkin. Unda 81 ta sakkizlik mavjud bo‘lib, barcha mavzular umuminsoniy g‘oyaning turli qirralarini badiiy-intellektual mezonlar talqinlari asosida yoritishga qaratilgan. Sakkizliklarning yuzaga kelishi ikki holatda yorqin ko‘rinadi:

- 1) sakkiz misraning o‘zaro bir butunligi tarzida birikuvi ko‘rinishida;
- 2) ikki to‘rtlikning shaklan alohida, lekin bir mazmunni ifodalashga qaratilgan yaxlit sakkizliklar tarzida. Bulardan har birining o‘ziga xos jihatlari mavjud. Jumladan, sakkizliklar, asosan, 9-11 hijoli ikki, uch turoqli misralar

³⁸ Абу Мансур Абдумалик ибн Мухаммад ас-Саолибий. Татиммат ал-Ятима. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 30.

bo'lib, falsafiy-ijtimoiy, intellektual fikrlar ustuvordir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sakkizliklarga xos mushtarak xususiyat – ularda falsafiy-ma'naviy mushohadakorlik, yuksak badiiylilik va mental (aqliiy-ruhiy) tasavvur uyg'unligining yetakchilik qilishidir. Umuman, doston shoirning badiiy mahoratini to'la namoyon qila olgan, mavzu, obraz, badiiyat va ifoda rang-barangligiga asoslangan zamonaviy o'zbek dostonchiligining eng yaxshi namunalaridan biridir.

Bobning ikkinchi fasli **“Ko'prik” tarixiy-falsafiy doston sifatida** deb nomlanadi. Matnazar Abdulhakimning “Ko'prik” dostoni mazmun va shakl jihatdan o'zgacha tuzilishga ega bo'lib, Yevropada tahsil olgan xorazmlik birinchi irrigator Muhammad hoji Aminaddin o'g'li hayoti, uning ezgu ishlari va amallariga bag'ishlanadi. Doston voqea va tuyg'ular uyg'unligini mujassamlashtirib, to'rtlik, g'azal, rivoyat, muxammas, sonet janrlari sintezini yaxlit matnga birlashtiruvchi tarixiy mavzudagi asardir.

Doston voqealari Xorazmga ilk poyezd kelganida Xonqa tumanining Sarapayon qishlog'ini qoq ikkiga bo'lib o'tgani, barakati cheksiz Ona Jayhun (Amudaryo) ta'rifi, bu xususdagi muallifning o'y-kechinmalari bilan boshlanadi. Shoir dostonida insonlar hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan ko'prik bilan ular zakosi orqali kashf qilingan temir yo'llarni bir-biriga bog'liq tushuncha sifatida keltirib, odamlar hayotidagi ahamiyatini chuqur ta'kidlaydi. Shu bilan birga, odamzodning nafs o'pqoni tabiatga, daryo-dengizlarga xavf solgani muallif qalbini o'rtaydi. Mustabid tuzum davrida tabiatga qilingan “hujum”lar naqadar dahshatli bo'lganligi, bu esa kelajak uchun jiddiy xavf tug'dirishini ta'kidlaydi. Shoir ezgulikdan, yurtimizga kirib kelgan buyuk istiqlol nurlaridan umidvor bo'lib, “Asrimizdagi dahshatli ekologik xatolar Chingiz qirg'inidan ham badtar ahvolga solib qo'yayozdi vatanni. Talonchilar dengizga tegmagan edilar, talonchilar daryoni quritmagan edilar. O'zimizning johilligimiz undan-da badtar ishni qildi. Dengizni boy berib qo'yayozdik, daryolarimiz hayoti xavf ostida qoldi. Bu achchiq haqiqatlardan ko'z yumish kamoli g'ofillik, borib turgan jaholat bo'ladi. Xayriyat, daryolarimizga suv qaytayotir. Dengiz umid bilan to'lqinlana boshladi. Mana shunday bir paytda istiqlol qurayotgan ko'priklar ulug' tasallidir. Biroq quruq tasalli emas. Ana shu daryolarning, dengizimizning qayta to'lishidan muborak mujdalaridir”³⁹, – degan haqqoniy fikrlarni keltiradi.

Doston boshlanmasida shoir Muhammad hoji Aminaddin o'g'lining “burnog'i asrning so'nggi yirik mirobi”, Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiydek ulug' zotlarning munosib vorisi ekanligini ta'kidlaydi va dostonning muqaddima qismini “Tavallud” deb nomlaydi. Bu qismda muallif insonning dunyoga kelishi, taqdiriga bitilgan qismat, baxt va azob, gunoh va tazarru, mehr va shafqat tuyg'ulari haqida badiiy-falsafiy qarashlarini bayon qiladi. Dostonning ikkinchi qismi “Suv” deb ataladi va inson uchun muqaddas bo'lgan hayot manbayi – suvni ta'riflaydi. Ma'lumki, olimlar sayyoramizdagi ilk tirik mavjudotlar suvda paydo bo'lganini ta'kidlashadi. Asarning uchinchi qismi “Taxyatosh” deb nomlanadi. “...bir vaqtlari Jayhun bahaybat tog'-toshlarni dumalab kelgan bo'lib, bu toshlar asrlar mobaynida suvning shiddat bilan

³⁹ Abdulhakim M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 164.

oqishidan silliqanib, dumaloq taxya shaklini olgan”. Bu bo‘limda joy nomi Taxyatosh sabr-toqat va iroda ma’nolarini olib, obraz darajasiga ko‘tarilgan. Dostonning to‘rtinchi qismida Muhammad Aminaddinning muborak haj ziyoratiga jo‘nashi, keyin esa tahsil uchun Farangistonga borishi, uning yoriga yozgan maktublari beriladi. Asarning keyingi boblarida rivoyat va hikmatlar berilib, unda shoirning hayot, suv, vaqt, umr mohiyati, ilm qadri haqidagi badiiy-falsafiy qarashlari talqin etiladi.

Doston tarkibiga “Quduq” deb atalgan syujetli she‘r kiritilgan bo‘lib, unga “Ming machit, ming machitdan – yuz gechik, yuz gechikdan – bir ichik” degan Xorazm maqoli epigraf qilinadi. Ko‘rinadiki, maqolda insonning jamiyat oldidagi mas’uliyati uning imkoniyati va qudratiga bog‘liqligi talqin etiladi. Unda “ming machit” eng yuksak savob va ijtimoiy ahamiyatga ega xayrli ish ramzi sifatida qo‘llanilib, bunday ezgu amal faqat katta imkoniyat egalariga xos ekani nazarda tutiladi. “Yuz gechik (ko‘prik)” esa undan quyi, ammo baribir jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi amaliy faoliyatni ifodalaydi. “Bir ichik (quduq)” orqali esa har qanday sharoitda, hatto cheklangan imkoniyatga ega shaxs ham xalq manfaatiga xizmat qiluvchi xayrli ishlarni bajara olishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shu tariqa maqolda ezgulik mezon miqdor bilan emas, balki imkoniyat doirasidagi foydali amal bilan belgilanishi ta’kidlanadi. “Quduq” voqeaband she‘r bo‘lib, quyidagi voqea tasviri bilan boshlanadi: “XX asrning yigirmanchi yillari. Xonqa hokimi Muhammad Aminaddin o‘g‘liga quduqlardan biriga itning o‘ligi tashlanganligini aytib, arz qilishdi. “Aybdorni topdingizlarmi?” so‘radi hokim. “Yo‘q” deb javob qilishdi arzgo‘ylar. Hokimning rangi oqardi. Lablari asabiy titrab, yanoq mushaklari o‘ynay boshladi. Uning vajohatidan qo‘rqququlik edi...”⁴⁰. Ma’lumki, quduqlar azaldan muqaddas sanalgan, ular odamlarni tashnalikdan qutqaradi, hayot baxsh etadi. Muhammad Aminaddin tilidan shoir shunday yozadi:

Quduq nopok bo‘lsa, na oching aza,
Quduq nopok bo‘lsa, na ko‘z yoshlanglar.
Faqat qahr bilan, faqat darg‘azab,
Bunday quduqlarni ko‘mib tashlanglar⁴¹.

Shoir Muhammad Hoji Aminaddin shaxsiyatiga ta’rif berganda, uning insoniylik, sofdillik, halollik, kamtarlik, topqirlik xislatlariga urg‘u beradi. O‘sib kelayotgan avlodni ham shunday inson bo‘lishga, “odam ko‘prik”lar ko‘payishiga da’vat etadi. Matnazar Abdulhakimning “Ko‘prik” dostoni asrlarni bir-biri bilan bog‘laydigam “odam ko‘priklar”, ularning ezgu amallari haqida madh etuvchi go‘zal asardir.

Tadqiqotning to‘rtinchi bobida **“Tadqiqotchilik faoliyatining adabiy-estetik qirralari”**ga e’tibor qaratiladi. Bobning birinchi faslida **“Olim qarashlarida qiyosiy-tipologik metod ustuvorligi”** haqida so‘z boradi. Ko‘pqirrali ijod sohibi Matnazar Abdulhakim badiiy-ilmiy merosining ajralmas qismini ilmiy-tadqiqot xarakteridagi maqolalar, publitsistik asarlar hamda tarjimonlik faoliyati tashkil qiladi. 1997-yilda Matnazar Abdulhakimning “Iymon

⁴⁰ Abdulhakim M. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 227.

⁴¹ Абдулҳаким М. Қўприк. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 101.

tuhfasi” asari Pahlavon Mahmud tavalludining 750 yilligiga bag‘ishlab nashr qilindi. Tadqiqotchi asarda shoir va pahlavonning 40 ga yaqin ruboiysini tahlil qilib, Pahlavon Mahmud she’riyatining naqadar ulkan ummon ekanligini ta’kidlaydi. Matnazar Abdulhakim Pahlavon Mahmud ruboiylarini Najmiddin Kubro, Muhammadrizo Ogahiy ruboiylari bilan qiyoslab o‘rganar ekan, ulardagi hamohangliklarning asosiy jihati – falakning oqibatsizligi bilan insonlar o‘rtasidagi bevafoqlikning mushtarakligi mavzusidir, deb qaraydi.

Adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayev Matnazar Abdulhakimni izlanuvchan tadqiqotchi sifatida shunday e’tirof etib: “Matnazar Abdulhakim badiiy va ilmiy tafakkur ufqlari qamrovli, fikr mohiyati teran, ifoda tarzi ravon ijodkordir”⁴², – deya uning adabiy-estetik qarashlariga yuksak baho beradi. Matnazar Abdulhakimning publitsistik asarlarida ham, tadqiqot-maqolalarida ham milliy o‘zlikni anglash, inson qadri, ma’naviy komillik masalasi asosiy g‘oyaviy yo‘nalish sifatida ilgari suriladi. Xususan, Pahlavon Mahmud shaxsiyatini yoritishda publitsistikaning ta’sirchan usullaridan foydalanib, o‘quvchini fikrlashga, o‘z-o‘zini tahlil qilishga undaydi.

“Tafakkur chorrahalarida” (2013) asarida Matnazar Abdulhakim Pahlavon Mahmud shaxsiyatini iymon va insoniy barkamollik ramzi sifatida talqin etadi. Muallifning ta’kidlashicha, Pahlavon Mahmud o‘z davrida nafaqat shoir va mutafakkir, balki iymon va axloqiy komillikni targ‘ib etuvchi shaxs sifatida xalq orasida e’tibor qozongan. Shu jihatdan uning qarashlari Forobiyning “fazilatli shahar” haqidagi g‘oyalari, Yassaviyning tariqatga doir pand-nasihatlarini, Navoiyning axloqiy-estetik qarashlari, Najmiddin Kubroning ilohiy xislatlari bilan hamohangdir. Bu qiyoslashlar orqali muallif Pahlavon Mahmud merosini kengroq tarixiy-falsafiy kontekstda ko‘rsatadi. Risoladan o‘rin olgan “Ilohiy imtiyoz” maqolasida Pahlavon Mahmudning 18 ta, “Hamsafarlar muloqoti”da 14 ta, “Iymon tuhfasi” 32 ta, “Muhabbat kimyosi”da 21 ta ruboiysini tahlil qiladi. Ko‘rinadiki, muallif asarda Pahlavon Mahmudning javonmardiylik g‘oyalari tarannum etilgan 85 ta ruboiysini mazmun-mohiyati, tasavvufiy qatlamlari va shoir badiiy mahorati nuqtayi nazaridan talqin etadi. Bu raqamlar tadqiqotning keng ko‘lamligi, Matnazar Abdulhakimning Pahlavon Mahmud merosiga qay darajada chuqur yondashganini va Yoqubjon Is’hoqov, To‘xtasin Jalolov, Natan Mallayev, Homidjon Homidov, Ergash Ochilov kabi olimlar qatorida pahlavonmahmudshunoslikka hissa qo‘shganligini ko‘rsatadi.

Matnazar Abdulhakim “Ilohiy imtiyoz” maqolasida Pahlavon Mahmud ruboiyotida fano falsafasi haqida so‘z yuritar ekan, dastlab fano haqida o‘z qarashlarini bayon etadi. “Ilohiy imtiyoz” deb atalmish “fano”, ya’ni o‘tayotgan vaqtni Pahlavon Mahmud ruboiylari orqali qayta kashf etadi. “Fano – Odam Atoning tuproqdan iylangan lahzalaridan boshlab, tong-la mahshargacha bo‘lgan vaqt chizig‘i. Ayni bir paytda, fano lahzadagi aqlbovar qilmas bir ulushning mingdan bir qadar kichik nuqtasidan olingan zarra. Ya’ni fano bu – “o‘zingdan ketding – menga yetding” demakdir. Ana shu ma’noda ham fano insonga berilgan ilohiy imtiyoz”. Fanoning o‘ziga xos ilohiy qonuniyatlari borligini, ana shu

⁴² Abdullayev H. Mangulikka muxtasar nazar. – Urganch: Xorazm, 2018. – B. 4

qonuniyatlarni mutafakkir shoirlar teran anglaganligini aytib o'tadi. Pahlavon Mahmud ruboiylaridagi "fano – o'tayotgan vaqt" falsafasini tahlil qilar ekan, uni Alisher Navoiy bitiklari bilan qiyoslaydi.

Matnazar Abdulhakimning Pahlavon Mahmud asarlari, xususan, ruboiylari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarini o'rganish asosida quyidagi jihatlar kuzatildi:

1) talqinlarda Matnazar Abdulhakimning Pahlavon Mahmud dahosiga, uning adabiy merosiga chuqur hurmati va bu merosning mazmun-mohiyatini ochishga bo'lgan izchil intilishi;

2) Pahlavon Mahmud ruboiylarini asliyatda o'qib, o'zi tarjima qilganligi bois ham ularning asliga munosabat bildirib, tahlil qiladi va o'z adabiy-estetik qarashlarini ham bayon etadi;

3) tadqiqotlarda sof ilmiy-nazariy uslub emas, balki badiiy-publitsistik talqin, falsafiy mushohadakorlik ustuvorlik qiladi;

4) Pahlavon Mahmudning, asosan, javonmardiylik g'oyalari ilgari surilgan ruboiylari tahlilga tortiladi.

Matnazar Abdulhakim o'zining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan istiqlol davrida dolzarb ahamiyat kasb etgan masalalardan biri – mumtoz adabiyotni asl manbalar asosida o'rganish va talqin etish jarayoniga munosib hissa qo'shdi. U o'z tadqiqotlari orqali mustaqillik yillarida shakllangan yangicha adabiy tafakkur, milliy o'zlikni anglash hamda ma'naviy merosni qayta kashf etish ruhini ifoda etdi. Aytish mumkinki, Matnazar Abdulhakim o'zining puxta bilimiga, teran estetik didga asoslangan ilmiy izlanishlari bilan e'tiborga sazovor tadqiqotlar yaratdi.

Bobning ikkinchi fasli **"Matnazar Abdulhakim – Ogahiy ijodi tadqiqotchisi" deb nomlangan.** Ogahiy adabiy merosini o'rganish masalasi Matnazar Abdulhakim tadqiqotlarida asosiy o'rinni egallaydi. Shoirning Ogahiyga bo'lgan yuksak mehrini Mahmud Rajab shunday xotirlaydi: "Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi siymolarni doim tilidan qo'ymasdilar-u, Ogahiy hazratlari haqida gap ketsa, ba'zan nafasini ichga yutib o'tirar yoki xos joylardagina gap ochar edilar. Ogahiy shu darajada yaxshi ko'rardilarki, hatto nomlarini ham e'zozlab, mehr bilan tilga olardilar". Ko'rinadiki, M.Abdulhakim Ogahiy dahosiga, uning bebaho merosiga cheksiz hurmat va yuksak qadriyat sifatida qaraydi.

"Mangulik jamoli"dagi maqolalardan biri "Ogohlar ogohi" deb nomlanadi. Maqola adabiy suhbat shaklida bo'lib, jurnalist va adib R.Hasan bilan Ogahiy taxallusidan tortib, uning asarlari bugungi kun uchun ma'naviy mayoq, tuganmas tarbiya o'chog'i ekanligi haqida fikr boradi. Matnazar Abdulhakim tahlilida publitsistik ohang ustuvor, fikrlari hayotiy misollar, hikmatli iboralar bilan boyitilgan. Publitsistikada u tezkor axborotga asoslangan tahliliy uslubni yetakchi qilsa, adabiyotshunoslikda asosan ijodiy jarayon, badiiy xususiyatlar va so'z san'ati muammolariga munosabat ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhim jihati shundaki, Matnazar Abdulhakim suhbat janrida ham shoirona tafakkur va publitsistik nigohni uyg'unlashtira olgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Uning suhbatlarida badiiy-estetik qarashlar, obrazli mushohada hamda falsafiy umumlashmalar o'zaro qorishib, muallifning publitsistik mahoratini yuksak darajada namoyish etadi. Yuqoridagi suhbatda Matnazar Abdulhakim fors she'riyati azal-azaldan basharni o'zining "nazmiy boylik ko'lami" bilan hayratga

solib kelayotganini aytib, Gyotening “G‘arb-u Sharq devoni”, Sergey Yeseninining “Fors taronalari”, Griboyedovning forsiy tilda g‘azallar yozganliklari xususida bir qancha dalillar keltiradi. Hatto Jaloliddin Manguberdi ham turkiy xalqlarning vakili bo‘lishiga qaramasdan, forsiy tilda go‘zal ruboiylar bitganligini mamnuniyat bilan ta’kidlaydi va Ogahiyning forsiy she’riyatini yuksak baholaydi.

Matnazar Abdulhakimning “Shifobaxsh dard” nomli esse-maqolasi ham Ogahiy merosini talqin etishda alohida o‘rin tutadi. “Ogohlar ogohi”da, asosan, Ogahiyning forsiy asarlari, ijodiy merosining salmog‘i, poetik mahorat qirralari haqida mulohazalar yuritilgan bo‘lsa, “Shifobaxsh dard” esse-maqolasida Ogahiy she’riyatining inson ruhiyati va jamiyat hayotidagi shifobaxsh qudrati tahlil qilinadi. Muallif Ogahiy she’rlarini o‘qishni oddiy mutolaa emas, balki “ma’naviy bayram”, “odamiylik ma’rakasi” sifatida talqin etadi. Muallifning bu haqdagi fikrlari quyma, ta’sirli va jozibali: “Ogahiy she’rlarini mutolaa qilyapman. Men bunday damlarni o‘ziga xos bir bayram, inson ruhiyatining foniy dunyo anduhlari ustidan g‘alabasi, ezgulikning kayfiyatimdagi barqaror bir muzaffariyati sifatida nishonlayman. She’riyatning tip-tiniq hamda sohir parvarishidan aqlimni va tuyg‘ularimni takror-takror bahramand etib, manfiylikning murdor hamlalarini daf etishdek qutlug‘ jahd-u jadallarga hozirlanaman. Yana ham insonroq bo‘lib qolgim keladi”⁴³. Darhaqiqat, bu chiroyli ta’rifda she’riyatning qudrati, badiiy so‘zning kuchi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Matnazar Abdulhakimning “Bulbul tushlari” maqolasi Ogahiy she’riyatini badiiy-falsafiy jihatdan sharhlashga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mumtoz adabiyotda an’anaviy bo‘lgan ramz va timsollarning shoir she’riyatida qanday ma’nolarda qo‘llanilishi tahlilga tortiladi. Maqolaning markazida insonning yaratilishi, borliqning ilohiy mohiyati va umr mazmuni masalasi turadi. Matnazar Abdulhakim talqiniga ko‘ra, Ogahiy o‘z she’riyatida insonni oliy mavjudot sifatida tasvirlaydi. Maqolani Ogahiy “Ta’viz ul-oshiqin” devonining “Zihi jonlarg‘a” deb boshlanuvchi ochqich g‘azalida inson yaralishi, uning o‘z asli nasliga ilohiy ishonchi falsafasi haqidagi fikrlar bilan boshlaydi. Matnazar Abdulhakim g‘azal misralarini sharhlar ekan, ularni shoirona lutflar bilan ataydi. “Zihi jonlarg‘a vasling shavqidin aysh-u tarab paydo” misrasini Matnazar Abdulhakim Ogahiyning “fikr quyoshi balqiy boshlagan misra” deya ta’riflaydi va bu misrada Olloh vaslidan umidvor jonlarning hali dunyoga kelmasdanoq shavqlana boshlaganligi shoirni hayratlantiradi.

